

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**BYUDJET HISOBI VA DAVLAT JAMG'ARMALARI FAKULTETI**

**“PENSIYA ISHI” KAFEDRASI**

**QOSIMOV TOXIR SHAKIROVICH**

**“JAHONDAGI PENSIYA TA'MINOTI TIZIMLARI,  
ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI”**

5231300 -“Pensiya ishi” ta'lim yo'nalishi bo'yicha  
bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”**

*“Pensiya ishi” kafedrasi mudiri \_\_\_\_\_ i.f.n.,  
dots. B.Mamatov*

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2016 y.

**Ilmiy rahbar:**

\_\_\_\_\_ f.prof., G.Qosimova

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2016 y.

**TOSHKENT – 2016**

<b>M U N D A R I J A</b>		<b>Betlar</b>
<b>KIRISH.....</b>		3
<b>I BOB. XORIJIY DAVLATLAR PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....</b>		7
1.1. Xorijiy davlatlar pensiya ta'minotining nazariy jihatlari..		7
1.2. Jahonda pensiya tizimini moliyalashtirish modellari .....		13
1.3. Xorijiy mamlakatlarda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti xususiyatlari .....		17
<b>II BOB. JAHON PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINI TAQQOSLASH NATIJALARINING TAHLILI .....</b>		22
2.1. Xorijiy davlatlarla pensiya fondi sug'urta badallarini to'plash amaliyoti.....		22
2.2. Rivojlangan mamlakatlardagi pensiya tizimining hozirgi zamon muammolari.....		29
2.3. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlaridagi fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimining tahlili .....		37
<b>III BOB. XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA O'ZBEKISTON PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....</b>		43
3.1. Pensiya ta'minoti tizimi islohotlarining asosiy yo'nalishlari.....		43
3.2. O'zbekistonda jahon pensiya ta'minotining ilg'or tajribalaridan foydalanish yo'llari .....		47
<b>XULOSA VA TAKLIFLAR.....</b>		55
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI...</b>		58

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi.** Pensiya tizimi aholini ijtimoiy himoyalash tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Mamlakatning pensiya tizimi pensiya taminoti va unga xizmat qiluvchi maxsus muassasalar, pensiyani amalga oshirish mexanizmi hamda shu sohadagi davlat siyosatini amalga oshirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy dastak va vositalarni qamrab oladi. O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti aholini ijtimoiy himoyalash tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi, chunki u deyarli barcha fuqarolarning hayotiy manfaatlari bilan bog‘liq, fuqarolar mehnat qobiliyatlarini yo‘qotganlarida shu tizim orqali ijtimoiy himoya qilinadi. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimida yolg‘iz qariyalar, pensionerlar va nogironlarning talablari va ehtiyojiga alohida e‘tibor beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ta‘kidlaganlaridek, «...Biz tanlagan va mashhur besh tamoyilga asoslangan taraqqiyot modelining naqadar haqqoniy va samarali ekani biz qurayotgan yangi demokratik tizimda, iqtisodiyotimiz rivojlanishining barqaror, barchani hayratda qoldirayotgan sur‘atlarida, xalqimizning hayot darajasi va sifati ortib borayotganida o‘zining amaliy tasdig‘ini topmoqda. Kirib kelayotgan yangi yilga «Keksalarni e‘zozlash yili» deb nom berib, uni mana shunday pok niyat va harakatlar bilan boshlayotganimiz 2015 yilning tinchlik va osoyishtalik, farovonlik va to‘kinlik yili bo‘lishiga, uning yanada mazmunli o‘tishiga munosib hissa bo‘lib qo‘shiladi»<sup>1</sup>.

Mamlakatimizda amalga oshirilib kelinayotgan huquqiy islohotlarning maqsadlaridan biri – inson manfaatlarini oliy qadriyat sifatida har tomonlama ta‘minlash va muhofaza etishdan iboratdir. Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, fuqarolarning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj tabaqalarini manzilli ijtimoiy himoya qilish taraqqiyotimizning muhim hususiyatlaridan bo‘lgan

---

<sup>1</sup>Karimov I.A. Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirish – bosh maqsadimizdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi. \ Xalq so‘zi. 2014 yil. 5 dekabr.

bugungi sharoitda pensiyalarga oid qonunchilikni takomillashtirish, inson huquqlariga oid xalqaro standartlarni keng joriy etish, davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash chog'ida ijtimoiy adolat tamoyillarini to'la qaror topdirish, ana shu maqsadlar uchun ajratilayotgan moliyaviy resurslardan tejab-tergab, maqsadli va o'rinli foydalanishga erishish amalga oshirib kelinayotgan yangilanish va modernizatsiya qilish jarayonlarimizning muhim jihatlaridan sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, «Bizning hamma ishlarimizda – bu iqtisodiy siyosatimizni shakllantirish masalasi yoki iqtisodiyotni isloh etish va modernizatsiya qilish dasturini hayotga tatbiq etish bo'la-dimi, ijtimoiy soha tizimida ertangi va uzoq muddatli istiq-bolga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarni belgilab olish bo'ladimi – bularning barchasida biz uchun faqat bitta masala eng ustun va hal qiluvchi o'rinda turadi. U ham bo'lsa, inson manfaatlarining ustuvorligidir. Xalqimizning turmush daraja-si va hayot sifatini izchil va bosqichma-bosqich yuksaltirib borish bo'yicha bizning asosiy maqsadimiz ham ana shundan iborat»<sup>1</sup>.

Keyingi yillarda davlatimiz tomonidan pensiya qonunchiligi, davlat pensiyalarini tayinlash va to'lashni amalga oshirish tizimi hamda qonunlarga rioya etish tizimi sohalaridagi keng ko'lamli tadbirlardan ko'zlangan maqsad ham zamon talablarini hisobga olish, o'zgarib borayotgan sharoitga moslashishdan iborat. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarish va tendensiyalar axoli turmush sharoitini yanada yaxshilash, inson manfaatlarini ta'minlash sohasidagi ishlarimiz miqyosini uzluksiz ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Pensiya jamgarmasi faoliyatini takomillashtirish yuzasidan rivojlangan malakatlar boy tajribasidan samarali foydalanish dolzarb hisoblanadi. Respublikamiz aholisini ijtimoiy himoyasini ta'minlash darajasini oshiradi va turli ijtimoiy muammolarni hal etilishida muhim o'rin tutadi. Shu

---

<sup>1</sup> Karimov I. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. \ Xalq so'zi. 2008. fevral.

maqsadda bitiruv malakaviy ishimizga “Jahondagi pensiya ta’minoti tizimlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari” mavzusi tanlandi.

**Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishining maqsadi – jahondagi pensiya ta’minoti tizimlarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va ilg‘or tajribalardan” O‘zbekiston Respublikasi pensiya ta’minotida foydalanish yuzasidan xulosa va takliflar berishdan iborat. Muallif tomonidan qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish belgilangan:

- xorijiy davlatlar pensiya ta’minotining nazariy jihatlarini o‘rganish;
- jahonda pensiya tizimini moliyalashtirish modellarini o‘rganish;
- pensiya fondi sug‘urta badallarini to‘plash amaliyotini ilmiy o‘rganish;
- rivojlangan mamlakatlardagi pensiya tizimining hozirgi zamon muammolari o‘rganish;
- MDH davlatlaridagi fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini tahlil qilish;
- pensiya ta’minoti tizimidagi islohotlarning asosiy yo‘nalishlari o‘rganish va O‘zbekistonda qo‘llash bo‘yicha xulosalar tayyorlash;
- O‘zbekistonda jahon pensiya ta’minoti tizimi yangiliklaridan foydalanish yuzasidan amaliy takliflar berish.

**Bitiruv malakaviy ishining ob’ekti.** Xorijiy davlatlarda fuqarolarning pensiya ta’minoti mexanizmi bitiruv malakaviy ishi ob’ektini tashkil etgan.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti sifatida** jahon pensiya ta’minoti tizimini ilmiy o‘rganish olingan.

**Bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi.** Bitiruv malakaviy ishining tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari, bitiruv malakaviy ishining ob’ekti va predmeti, nazariy-amaliy ahamiyati hamda bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi ko‘rsatilgan.

Birinchi “Xorijiy davlatlar pensiya ta’minoti tizimining o‘ziga xos xususiyatlari” nomli bobda xorijiy davlatlar pensiya ta’minotining nazariy jihatlarini o‘rganilgan. Jahonda pensiya tizimini moliyalashtirish modellari o‘rganilgan.

Xorijiy mamlakatlarda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti xususiyatlari ko'rsatilgan.

“Jahon pensiya ta'minoti tizimini taqqoslash natijalarining tahlili” nomli ikkinchi bobda pensiya fondi sug'urta badallarini to'plashning zamonaviy amaliyoti berilgan. Rivojlangan mamlakatlardagi pensiya tizimining hozirgi zamon muammolari o'rganilgan. MDH davlatlaridagi fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimi tahlil qilingan.

“Xorijiy tajribalar asosida O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish istiqbollari» deb nomlangan yakuniy bobda xorijiy davlatlarda pensiya ta'minoti tizimidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari yo'nalishlari berilgan. O'zbekistonda jahon pensiya ta'minoti tizimi yangiliklaridan foydalanish yo'llari berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining xulosa qismida byudjetdan tashqari Pensiya jag'armasi faoliyatini va pensiya tizimini takomillashtirish yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirilgan va taklif –tavsiyalar ishlab chiqilgan.

## **I.BOB. XORIJIY DAVLATLAR PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

### **1.1. Xorijiy davlatlar pensiya ta'minotining nazariy jihatları**

Milliy iqtisodiyotdagi pensiya tizimi taqsimot munosabatlarining mahsuli bo'lib, katta ijtimoiy yukni ko'taradi. Uning mablag'lari firmalar, korxonalar, uy xo'jaliklari va davlat singari iqtisodiyot sub'ektlari daromadlarini qayta taqsimlash jarayonida shakllanadi. «Pensiya» kategoriya sifatida pul mablag'larining maqsadli fondlarini shakllantirish va keksayganda chog'ida undan foydalanish shakl va usullari yig'indisini o'z ichiga oluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimini aks ettiradi.

Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, samarali faoliyat yurituvchi davlat pensiya tizimi quyidagi xalqaro talablarga javob berishi lozim<sup>1</sup>:

- majburiy ishtirok - pensiya tizimi majburiy to'lovlar hisobiga shakllanadi;
- moliyaviy barqarorlik - pensiya fondiga to'lanadigan sug'urta badallar to'lanadigan pensiya summasini to'liq qoplanadi;
- pensiya bilan ta'minlanganlik - pensiya olish huquqiga to'langan badallar hisobiga erishiladi va uning qiymati pensiya fondiga to'lanadigan sug'urta badallar qiymatiga va to'lov davomiyligiga bog'liq bo'ladi;
- pensiya tizim barqarorligi muntazam baholanadi.

Pensiya ta'minoti tizimini shakllanish tarixiga nazar tashlasak, bu ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi taxminan 150 yil avval qo'llanila boshlanganligini ko'rish mumkin. Dastlabki pensiya tizimi Evropa Ittifoqi davlatlarida o'n to'qqizinchi asrda paydo bo'lgan. Qirol o'z farmoni bilan shaxslarning ayrim guruhlariga – saroy ayonlari, sarkardalar, olimlar va rassomlarga qirol sulolasi oldidagi alohida xizmatlari uchun pensiya tayinlagan.

“Pensiya ta'minoti” tushunchasini ilk bor Germaniyaning birinchi imperiya kansleri Otto fon Bismark qo'llagan. Kansler kasallik uchun pensiyani 1883 yilda, mehnat jarayonida shikastlanganligi uchun pensiyani 1884 yilda va qarilik

---

<sup>1</sup>Vaxabov A.V. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida pensiya tizimini modernizatsiyalash istiqbollari. Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2014 yil. 21 noyabr. -B.31.

pensiyasini 1889 yilda joriy qilgan. “1900 yilda nogironlik pensiyasini oluvchilar soni 600 ming kishini tashkil etgan. Germaniya pensionerlarining  $\frac{2}{3}$  qismi nogironlik pensiyalarini oluvchilar bo‘lsa,  $\frac{1}{3}$  qismi esa qarilik pensiyalarini oluvchilar edi”<sup>1</sup>. Ma’lumot o‘rnida shuni aytib o‘tish kerakki, o‘sha vaqtda erkaklarning o‘rtacha yashash yoshi 40,6 yoshni, ayollarning o‘rtacha yashash yoshi 44 yoshni tashkil etganiga qaramasdan, pensiya yoshi 60 yosh belgilangan. Aynan shuning uchun o‘sha davrda mamlakatdagi qarilik pensiya oluvchilarning soni kam edi. “Bu davrda yolg‘izlik pensiyasini oluvchilar soni ortgan va 1,7 mln. kishini tashkil etganini ko‘rish mumkin. Endi mamlakatdagi pensionerlarning  $\frac{1}{3}$  qismini nogironlik pensiyasini oluvchilar,  $\frac{2}{3}$  qismini esa qarilik pensiyasini oluvchilar tashkil etgan”<sup>2</sup>.

Pensiyaning ikkinchi modeli ham Evropaga xos bo‘lib, XX asrdan boshlab joriy etila boshlangan. Buyuk Britaniyada amal qilgan pensiya ta’minoti modeli Shimoliy Evropaning boshqa mamlakatlarida va Avstraliya, Yaponiyada ham amalga oshirilgan. Bu davrda davlatning ijtimoiy yordam tizimiga urg‘u berilib, karilik pensiyalari joriy etilgan. Bu tizim *Bazis State Rension* deb nomlangan. Bunday pensiya turidan mamlakatning barcha aholisi foydalanishi mumkin. Pensiyaning eng kam miqdori bir kishi uchun yiliga 3179 funt sterlingga teng bo‘lgan bo‘lsa, oilaviy juftlik uchun 5003 funt sterling tashkil etgan. AQSHda 1940 yildan boshlab aholi pensiya bilan ta’minlana boshlagan, taxminan 90 % pensioner davlat pensiyasini olish huquqiga ega bo‘lgan.

«Ijtimoiy muhofaza» atamasi birinchi marta 1935 yilda AQSH-ning «Ijtimoiy muhofaza to‘g‘risida»gi qonunida ishlatilgan edi. Bu qonun keksalik, o‘lim, nogironlik va ishsizlikdan maj-buriy sug‘urtalash instituti faoliyatining huquqiy asoslarini belgilab berdi. Mazkur qonun mamlakat uchun yangilik bo‘lgan. Tez orada bu atama dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida va XMTda keng qo‘llanila boshlandi, chunki u keksalar hamda mehnatga qobi-liyatsizlarga yordam berish

---

<sup>1</sup>Vaxabov A. Oxundedaeva M. Jahon pensiya tizimini rivojlantirish xususiyatlari. // Moliya. – Toshkent. 2014.- № 2.– B. 88.

<sup>2</sup>Vaxabov A. Oxundedaeva M. Jahon pensiya tizimini rivojlantirish xususiyatlari. // Moliya. – Toshkent. 2014.- № 2.– B. 89.

milliy dasturlari va tizimlarini tash-kil etish muammosining mohiyatini sodda va tushunarli tarzda ifodalagan. AQSHda ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy yordam ko'rsatishning davlat tizimi 1935 yilda yaratildi. Ijtimoiy dasturlarni byudjetdan moliyalashtirish yo'lga qo'yildi, davlat ijtimoiy sug'urtasi mexanizmi amal qila boshladi. AQSHda "Federal pensiya sugurtasi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi, mazkur qonun bilan AQSH hukumati kam ta'minlangan qariyalarni ijtimoiy himoya qildi. Ish beruvchilar ishchi-xodimlariga belgilangan pensiya ta'minoti uchun 100% gacha zahira mablag'lari tayyorlab qo'yishlari talab etildi. Pensiyani to'lash va'dasini bergan Amerika kompaniyalari zarur mablag'larni alohida hisobraqamlarda darhol to'plashni boshladi. Amerika Qo'shma Shtatlarida aholini ijtimoiy himoyalashning o'ziga xos tizimi hozirgi kungacha amal qilib kelmoqda. AQSHda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi ikki qismdan iborat bo'lib, birinchidan aholini ijtimoiy himoyalashni davlat tizimi mamlakat Konstitutsiyasida ifoda etilgan huquqiy me'yorlar asosida tashkil etilgan. Bu himoya tizimi asosan aholining o'z-o'zining ijtimoiy himoyalashga keng huquqlar berilgan. Asosiy e'tibor fuqarolarning o'z daromadlarini o'zlari ko'paytirishlariga qaratilgan. AQSHdagi ijtimoiy himoyalash tizimining ikkinchi qismi ijtimoiy ta'minot bo'lib, bu tizim asosan 65 yoshdagi ayollar va 66 yoshdagi erkaklarga mehnat staji, ya'ni pensiya olishlari uchun 26 yil ish stajiga ega bo'lishlari zarur. Keyingi qonunlarda ish staji 25 yil bo'lishi talab etilmoqda. Ish staji qanchalik kam bo'lsa, pensiya miqdori ham kam bo'ladi. AQSHda berilayotgan oylik pensiya miqdori o'rtacha 500 dollarni tashkil etadi. Hukumatning kafolatlangan daromadlar dasturi mavjud bo'lib, bu dasturdan keksalar, nogironlar, ko'zi ojizlar hammasi bo'lib 5 mln.ga yaqin aholi bu dasturdan foydalanadi. Oilalarga va bolalarga davlat tomonidan beriladigan yordam dasturida ko'p bolali kambag'al oilalar, boquvchisini yo'qotgan, beva va kam daromadli ko'p bolali ayollar, yolg'iz onalar foydalanadi.

Keyinchalik Xalqaro Mehnat Tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro ijtimoiy ta'minot assotsiatsiyasining ijtimoiy sug'urtalash va ijtimoiy yordam, ishlayotganlarga mehnatga qobiliyatsizlik hollarida eng kam daromadlarni kafolatlash bo'yicha, shuningdek, mehnat sharoitlari va uni muhofazalash, ish haqi

sohasidagi konvensiyalar va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda qabul qilish chog'ida ushbu tushunchaning doirasi ancha kengaytirildi. XMTning bu sohadagi "Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risida" 102-sonli Konvensiya (1952); "Ijtimoiy ta'minot sohasidagi teng huquqlilik to'g'risida" 118-sonli Konvensiya (1962); "Keksa mehnatkashlar to'g'risida" 162-sonli Konvensiya (1980); "Ijtimoiy ta'minot sohasida huquqlarni saqlash to'g'risida" 157-sonli Konvensiya (1982), 167-sonli tavsiyanomalari (1983) va boshqa xalqaro hujjatlar bazasi sifatida o'rganildi.

Xorijiy davlatlarda quyidagi pensiya ta'minoti konsepsiyalaridan foydalaniladi.

- AQSH, Angliya, Kanadadagi konservativ tizim;
- Shvetsiya, Daniya, Shvetsariya, Lyuksemburdagi ijtimoiy-demokratik tizim;
- Avstriya, Germaniyadagi ijtimoiy jamiyat nazariyasiga asoslangan tizim;
- Fransiya, Belgiya, Yaponiyadagi farovonlik davlati nazariyasiga asoslangan tizim.

Professor A.Vahobovning fikricha, «Byudjetdan tashqari fondlar avval maxsus fondlar va o'ziga xos hisobraqamlar ko'ri-nishida mavjud bo'lgan. Davlat o'zining faoliyat doirasini ken-gaytirishi bilan tobora yangi xarajatlarga ehtiyoj seza boshla-di. Ularni qoplash uchun mablag'lar maxsus fondlarda to'plandi va maxsus maqsadlarga qaratildi. Byudjetdan tashqari fondlar maqsadliligiga ko'ra ijtimoiy va iqtisodiy, boshqaruv daraja-siga ko'ra markaziy va mintaqaviy fondlarga bo'linadi»<sup>1</sup>. Mehnatga layoqatsizlar himoyasini o'z vaqtida qishloq oilalari va jamoalar ta'minlagan, bir qator kasblarda esa ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa tufayli ishlovchining mehnat qobiliyati yo'qolgan sharoitda korporatsiyalar, cherkovlar ham ishchilarga moddiy yordam ko'rsa-tishda muhim o'rin tutgan.

Rivojlangan mamlakatlarda faoliyat ko'rsatayotgan pensiya tizimi insoniyat taraqqiyotining yutug'i hisoblanadi va ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim o'rin tutadi. Pensiya tizimi iqtisodiy faol aholining ish joyi, mehnatga layoqati va daromadini yo'qotish bilan bog'liq turli hodisalardan ijtimoiy himoyalash shakli hisoblanadi. Davlatning nazorati asosida ish beruvchilar va ishlovchilarning

---

<sup>1</sup> Vahobov A. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. - T.: Sharq. 2003. –B.117.

maqsadli badallaridan shakllanuvchi maxsus byudjetdan tashqari ijtimoiy fondlardan moliyalash-tirilishi pensiya tizimining xususiyatli jihatidir. Pensiya tizimi kasallik, keksalik, baxtsiz hodisa tufayli mehnat qilish qobiliyatini yo'qotish holatlarining oldini olishga qaratilgan ijtimoiy himoyadir.

Iqtisodiy inqiroz sharoitida mamlakatlarning pensiya tizimlari darajalarga bo'lib chiqildi. Nol darajali pensiya tizimi ish beruvchi va davlat mablag'lari xisobiga shakllantirilgan. Birinchi darajadagi pensiya tizimidagi ishlovchilarning pensiya badallari to'lovi orqali pensionerlar ta'minlanadi. Bozor iqtisodiyoti mamlakatlari shu tizimdan foydalanadi. Ikkinchi darajali yoki jamg'arib boriladigan pensiya tizimida pensiya mablag'lari individual hisob raqamlarida jamg'arib boriladi. Bu tizimga Bolgariya, Estoniya, Vengriya, Qozog'iston, Latviya, Litva, Polsha, Ruminaya, Rossiya kabi mamlakatlarning pensiya tizimini kiritish mumkin. Uchinchi darajali pensiya tizimi o'ziga xos mexanizmiga ega bo'lib, bunda har bir shaxs qo'shimcha mablag'larini pensiya hisobraqamiga ixtiyoriylik asosida o'tkazish huquqiga ega. AQSH pensiya tizimi korporativlikka asoslangan bo'lib, deyarli boshqa mamlakatlarning pensiya tizimidan farq qilmaydi. Mamlakatda pensiyaga chiqish 62 yoshni, o'rtacha umr ko'rish darajasi 78,1 yoshni tashkil etib, mehnat pensiyasini olish uchun shaxs 35 yil ish stajiga ega bo'lishi lozim.

Iqtisodiy adabiyotlarda pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi va amal qilishi bo'yicha turlicha iqtisodiy qarashlar mavjud. Davlat pensiya ta'minoti tizimining mavjudligi ishlovchining o'zini mustaqil ta'minlash to'g'risida qayg'urishini cheklaydi, mehnat faoliyatini to'xtatgandan keyin pul daromadlari olishga ishonch ularni mehnat sifatini oshirishga manfaatdorligini kamaytiradi. Ishlovchining o'zini mustaqil ta'minlashga ehtiyoji va doimiy intilishi uni mehnat unumdorligini oshirishga rag'batlantiradi. Bu dalilning boshqa jihati investitsion jarayonlarni takomillashtirish maqsadlaridan kelib chiqadi. Kelajakda mustaqil moddiy ta'minlanish to'g'risida qayg'urish yollanma ishlovchini o'zining mehnat faoliyati jarayonida o'z hohishiga ko'ra jamg'armalar shakllantirishga majbur etadi. Ularning banklardagi jamg'aruvchi

mablag'lari investitsiya sifatida foydalanilishi va mehnat unumdorligining ortishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada belgilangan muddatda pensionerlarning daromadlari harakatga keladi va ushbu mablag'lar iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, Jahon banki tomonidan turli mamlakatlar uchun ko'p darajali pensiya tizimiga o'tish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Xususan, davlat taqsimot dasturlariga ega bo'lgan va keng aholi qatlamlari qamrab olinadigan mamlakatlar, shuningdek demografik muammolari bo'lgan mamlakatlar uchun birinchi qadam – davlat pensiya tizimida islohotlarni o'tkazish hisoblanadi. Buning uchun pensiyaga chiqish yoshini ko'tarish, imtiyozli pensiya tayinlash shartlarini qat'iyashtirish, kechroq pensiyaga chiqishni rag'batlantiruvchi shart-sharoitlarni yaratish, pensiya belgilash normativlarini o'zlashtirish va boshqa chora-tadbirlar o'tkazilishi lozim. Ikkinchi qadam majburiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimini joriy qilish bo'ladi, ya'ni bosqichma-bosqich davlat pensiyasi miqdorini asta-sekin kamaytirib, pensiya badallarini majburiy pensiya tizimiga qayta taqsimlash yo'li tanlanadi. Bunday bosqichma-bosqich o'tish Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) mamlakatlarida ham amalga oshirila boshlandi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida, Rossiyadan tashqari, Jahon banki tavsiyalari Vengriya, Latviya va Qozog'istonda pensiya islohotlarini amalga oshirishda qo'proq e'tiborga olingan. Pensiya tizimini isloh qilishning yana bir yo'li – bu birdamlik pensiya tizimi doirasida to'lanmay yig'ilib qolgan qarzlarni e'tirof etish va ularni to'lash majburiyatini olish, bir vaqtning o'zida tamomila yangi pensiya tizimini yaratishdir (Chili, Lotin Amsrikasi mamlakatlari). Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti iqtisodiyotga kapital oqimini ko'paytiradi va tezlashtiradi.

Shunday qilib, pensiya ta'minotining xorijiy andozalarini o'zlashtirish iqtisodiy o'sish sodir bo'layotgan, davlat pensiya tizimida mablag'lardan foydalanishning samaradorligi oshgan ularga nisbatan tegishli nazorat amalga

o'shirilgan, qo'shimcha pensiya ta'minoti soliq imtiyozlari hisobidan rag'batlantirilgan sharoitdagina muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

## **1.2.Jahonda pensiya tizimini moliyalashtirish modellari**

Hozirgi zamon pensiya tizimini tashkil etishda jahonga mashhur Germaniya va Chili modellari andoza sifatida ishlatiladi. Pensiya ta'minotining ikki modeli taqsimot-tortiluvchan va kapitallashgan modellaridir. Mashhur venger iqtisodchisi Ya.Kornai taqsimot-tortiluvchan va kapitallashgan pensiya modellarining o'ziga xos xususiyatlarini asoslab berdi. Ikki model o'rtasidagi farq pensiya ta'minotini moliyalashtirish mexanizmida yuzaga chiqadi. Taqsimot -tortiluvchan model pensionerlarni hozirgi vaqtda amalda bo'lgan aholining iqtisodiy faol qatlami hisobiga ta'minlaydi. Pensiya tizimining kapitallashgan modeli taqsimotdan farqli ravishda insonning o'z daromadlari va pensiya jamg'arilishi natijalari bilan uzviy bog'liq. Germaniyada taqsimot-tortiluvchan pensiya tizimi 1891 yilda joriy qilingan, o'sha davrdan hozirgacha uning turli ko'rinishlari Evropa Ittifoqi mamlakatlarida, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda va MDH davlatlarida qo'llanilmoqda. Germaniyaning pensiya tizimidagi taqsimot-tortiluvchan modeliga ko'ra aholining iqtisodiy faol qatlami tomonidan to'langan majburiy pensiya badallari hisobidan pensiya xarajatlari shakllanadi va aholining iqtisodiy faol qatlamlari o'rtasida taqsimlanadi. Boshqacha qilib aytganda, joriy pensiya xarajatlari joriy daromadlar hisobidan qoplanadi.Ushbu tizim avlodlar birdamligi asosida qurilgan. Bir avlod ichida esa, daromadlar aholining alohida ijtimoiy guruhlari o'rtasida tabaqalandi. Shuni aytib o'tish kerakki, Germaniyada to'lov intizomini rag'batlantiruvchi ball tizimi taqsimot modelini to'ldiradi.

Chili modeli-kapitallashgan model. Ushbu model erkin bozor islohotlari doirasida Chili mutaxassislari tomonidan ishlab chiqildi. 1981 yildan mehnat munosabatlarida ishtirok etgan har bir kishi uchun davlat pensiya ta'minoti bilan bir vaqtning o'zida ular xususiy pensiya fondlarining mijoziga aylandi. Kapitallashgan model mohiyati quyidagicha: pensiya badallarini investitsiya

qilishdan va to'plashdan hosil bo'lgan kapital pensiya xarajatlarini qoplashga yo'naltiriladi.

### 1.2.1.-jadval.

#### Pensiya ta'minoti tizimining rivojlanishi <sup>1</sup>.

Pensiya ta'minotining turi	Davr	Mamlakatlar	Jarayon
<b>Taqsimlanuvchi pensiya tizimi</b>	1889	Prussiya	Kansler Bismark tomonidan «Yagona davlat pensiya»si joriy etildi
	1891	Daniya	Maqsadli, qashshoqlarga ko'maklashishga qaratilgan pensiya ta'minoti joriy qilindi
	1889	Yangi Zelandiya	
	1908	Buyuk Britaniya	Ishchi guruh davlat pensiya ta'minoti bilan qamrab olindi
	1910	Fransiya	
	1913	Shvetsiya	
	1919	Italiya	
	1919	Gollandiya	
	1924	Chili	
	1927	Kanada	Zaruriylilik mezonida davlat pensiya tizimi amalga tatbiq qilindi
	1935	AQSH	«Federal pensiya sug'urtasi tizimi» akti imzolandi
	1954	Yaponiya	Barcha sohalarni davlat pensiyasi bilan qamrab olindi

Pensiya badallari kapital to'lovchining shaxsiy hisobraqamida hisobga olib boriladi. Ushbu hisobraqamni pensiya fondlari, pensiya kassalari, sug'urta kassalari yoki banklar yuritadi. Pensiya mablag'larini tizimli investitsiya qilish bilan ushbu institutlar investitsiya daromadlariga ega bo'ladi. Kapital yoki yig'ilgan pensiya badallari summasi ularni investitsiya qilishdan olingan daromad pensiya fondi faoliyati xarajatlari, natijasida kapitallashgan pensiyaning moliyaviy manbasidir. Avlodlar birdamligi asosida qurilgan taqsimot modeli va kapitallashgan model sug'urta tamoyiliga asoslanadi. Kapitallashgan model «Chili modeli» nomi bilan jahonga mashhur bo'ldi.

<sup>1</sup>Mamadjanov I.T. Vektor razvitiya pensionnix sistem stran mira. Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2014 yil. 21 noyabr. -B.22.

### 1.2.2-jadval.

#### Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimining rivojlanishi<sup>1</sup>.

<b>Pensiya ta'minotining turi</b>	<b>Davr</b>	<b>Mamlakatlar</b>	<b>Jarayon</b>
<b>Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi</b>	1851	Malaziya	Barcha ishchi qatlamini qamrab oluvchi jamg'arma kassasi joriy qilingan
	1880	Chili	Majburiy jamg'ariluvchi pensiya tizimi joriy qilingan
	1885	Shvetsariya	
	1986	Buyuk Britaniya	
	1990	Daniya	
	1993	Kolombiya	
	1994	Argentina	
	1997	Meksika	
	1998	Vengriya	
	1999	Polsha	
	2000	Gonkong	
	2005	O'zbekiston	

Xorijiy mamlakatlardagi pensiya tizimi modellarida davlat pensiya fondlari, jamg'arib boriladigan xususiy pensiya tizimi, davlat ijtimoiy sug'urta fondlari, majburiy tibbiy sug'urta fondlari, aholi bandligi fondlari ko'rinishida ifodalanadi. Xususiy pensiya tizimi hukumatning moliyaviy kafolatlaridan foydalanmaydi va moliyaviy bozor ishtirokchilarining pensiyaga chiqqunga qadar bo'lgan ish haqidan to'langan badallar miqdori hisobiga shakllanadi. Qayta taqsimlash tomoyiliga asoslangan pensiya tizimidan farqli o'laroq, xususiy pensiya tizimida sug'urta badallari nisbatan yuqori darajada belgilanadi va tegishli zahira jamg'armasi shakllantiriladi. Pensiya tizimining bu ikki bir-biridan prinsipial farq qiluvchi modellari o'rtasida ko'pgina oraliq variantlar mavjud bo'lib, ulardan har biri tizimdagi kamchiliklarni kamaytirishga yo'naltirilgan. Fransiyada davlat tomonidan tanlangan ijtimoiy pensiya sug'urtasi modeli uch darajadan iborat:

<sup>1</sup>Mamadjanov I.T. Vektor razvitiya pensionnix sistem stran mira. Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2014 yil. 21 noyabr. -B.25.

- davlat tomonidan pensiyaning barcha turlari uchun qat’iy belgilangan miqdordagi kafolatlangan eng kam pensiya to‘lovi;
- shaxsiy tartibda hisobga olish tizimi joriy etilgunga qadar o‘rtacha ish haqi va ish stajini hisobga oladigan to‘lov;
- sug‘urtalangan shaxslarning shaxsiy hisobvaraqlarida to‘plangan sug‘urta badallari summalaridan to‘lov.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlarini ta’minlash usullari va uning tarkibi respublikamizda avlodlar birdamligi pensiya tizimi saqlanib qolayotganligi va rivojlanayotganligini bildiradi. O‘zbekistonda avlodlar birdamligi tizimi aholining ayrim qatlamlari tomonidan adolatli tizim sifatida qabul qilinmokda. Mazkur tizimda ishlayotgan avlod o‘z mehnati natijalarini qayta taqsimlash hisobiga pensionerlarni ta’minlab turibdi. Hozirgi kunda birdamlik va jamg‘arish tizimiga asoslangan pensiya tizimlari amal qilmoqda. Birdamlik pensiya tizimining salbiy jihatlariga davlat pensiya tizimining monopol holatga ega bo‘lishi, pensiya miqdorini tenglashtirish unsurlarinig kuchayishi, ijtimoiy boqimandalikning ortishi va jamg‘armaga bo‘lgan aholi moyilligining susayishini kiritish mumkin.

Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston pensiya tizimining samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- O‘zbekistonda pensiya tizimini bosqichma-bosqich isloh etishning va xususiy jamg‘arib boriladigan pensiya fondlarini tashkil etish, rivojlantirishning davlat dasturini ishlab chiqish.
- Pensiya yoshini oshirish, hamda erkaklar va ayollar uchun pensiyaga chiqish yoshlarini tenglashtirish kerak.
- O‘zbekistonda pensiya tizimidagi turli imtiyozlarni va pensiyaga barvaqt chiqishni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.
- Mamlakatimizda o‘rtacha pensiyaning o‘rtacha ish haqidagi ulushini oshirishga, ya’ni qoplash koeffitsientini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

### **1.3.Xorijiy mamlakatlarda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti xususiyatlari**

Xorijiy mamlakatlarda pensiya tizimi oldida uchta muhim maqsad turadi<sup>1</sup>:

- fuqarolarni keksalik davrida kambag'allikdan himoyalash;
- mehnat faoliyatining tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan to'lanadigan ish haqi miqdoriga mutanosib tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta'minlash;
- bu daromad bilan kelajakda turmush darajasining pasayishidan himoyalash.

Pensiya tizimini isloh etishning yana bir muhim omillaridan biri bu pensionerlarni turli jamg'ariladigan dasturlardagi ishtirokini kengaytirish hisoblanadi. Masalan, Chili, Janubiy Koreya va Meksikada ish haqi ulushi pensionerlar daromadini yarmini tashkil etgan holda Estoniya, Sloveniya va Turkiyada 40 foizini, AQSH va Isroilda faqatgina 30 foizini tashkil etadi. Ushbu holat kishilarni turli pensiya davlat dasturlariga to'la jalb etilmaganligini aks ettiradi.

Pensiyani jamg'ariladigan tizimini joriy etayotgan mamlakatlar shunga iqrор bo'lishdiki, ixtiyoriy jamg'arish elementini qo'llash yuqori pensiyani miqdorini ta'minlamaydi. Sharqiy Evropa mamlakatlarida moliya inqirozi davlat tizimidagi majburiy jamg'arish istiqbolini shubha ostiga qo'ydi. Chunki Vengriyada majburiy jamg'arilgan pensiya fondi davlat byudjeti hisobiga musodara qilindi, Litva va Latviyada jamg'ariladigan to'lov badali stavkasi mutanosib ravishda jamg'ariladigan pensiya tizimi daromadlariga 10,0 foizdan 2,0 foizgacha qisqartirildi. Slovakiya, Polsha va Bolgariyada shu maqsadda jamg'ariladigan pensiya tizimlari majburiydan ixtiyoriylik prinsipiga aylantirildi.

Pensiya ta'minoti moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashning yirik oqimi bo'lib, iqtisodiyotda mahsulotlar, resurslar va daromadlarning mikroiqtisodiy doiraviy aylanishiga, aholining iqtisodiy faolligini rag'batlantirishga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Pensiya tizimi bilan iqtisodiyotning turli sohalari uzviy bog'liq

---

<sup>1</sup>Vaxabov A. Oxundedaeva M. Jahon pensiya tizimini rivojlantirish xususiyatlari. // Moliya. – Toshkent. 2014.- № 2.- B. 87.

bo‘lib, jamg‘ariladigan pensiya fondi mablag‘lari iqtisodiyotni investitsiyalashda moliviy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Rossiya iqtisodchilaridan S.V. Kadamseva «Gosudarstvennye finansy» nomli o‘quv qo‘llanmasida «Makroiqtisodiyotning asosiy muammolari va davlat sektori» nomli paragrafda aynan davlat pensiya tizimi va jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti masalasiga to‘xtaladi. Uning fikriga ko‘ra, “ lekin davlat pensiya ta‘minoti tizimining amal qilishi xususiy jamg‘armalarning darajasini kamaytiradi. Rossiya Federatsiyasida pensiya ta‘minoti tizimidagi islohotlarni olib borilishi shaxsiy jamg‘armalarni hajmini oshirdi, demak iqtisodiyotga investitsiyalar ham oshdi”<sup>1</sup>. Kelgusida xususiy jamg‘arishga to‘liq o‘tish va ijtimoiy sug‘urta badalini oshirish, pensiya jamg‘armalariga badallarni ko‘paytirish va aksionerlik jamiyatlari tomonidan investitsiyalar yo‘naltirishni kamayishiga va kapital bozoridagi o‘zgarishlarga olib keladi.

Kapitallashgan pensiya modeli davlat pensiyasiga qaraganda o‘rtacha 30 foizga yuqori bo‘lgan pensiya miqdorini ta‘minlaydi. 2000 yilda xususiy pensiya fondlarining jami aktivlari summasi YaIMga nisbatan 40 foizni tashkil etdi, 2020 yilga borib esa bu daraja 130 foizga etishi mumkin. Chili modelining umum tan olingan ijobiy tomoni shundaki, u bu model Xususiy pensiya jamg‘armalarining rivojlanishi tufayli milliy kapital bozorining shakllanishiga ko‘maklashadi. Xususiy pensiya jamg‘armalarining o‘z faoliyati davomida tizimli ravishda o‘z xarajatlarini kamaytirib bormoqda. Bu ko‘rsatkich Xususiy pensiya jamg‘armalarining iqtisod va hayotiylik darajasining yuqoriligidan darak beradi. Xususiy pensiya jamg‘armalarining institutsional investorlar sifatida mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli darajada ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Yuqori jamg‘arish qobiliyatining mavjudligi, muvaffaqiyatli investitsiyalar tufayli xususiy pensiya jamg‘armalarining yirik mablag‘lari iqtisodiyotga yo‘naltirilib, mamlakatning investitsion salohiyatining oshishiga va barqaror iqtisodiy o‘shishini ta‘minlashga ko‘maklashmoqda.

---

<sup>1</sup>Кадомцева С.В. Государственные финансы. Учебное пособие.- М.: «ИНФРА -М». 2010. –Б.344.

Kapitallashgan model shaxsiy pensiya jamg'armalarini, bandlikni ta'minlashda, to'lov intizomini oshirishda kuchli manfaatdorlikni yuzaga keltiradi. Kapitallashgan Chili pensiya modelining ijobiy va salbiy tomonlari qator G'arbiy Evropa mamlakatlarida taqsimot modelini isloh qilishda inobatga olindi. Natijada taqsimot elementlari saqlab qolingan va kapitallashgan model tamoyillarini o'z ichiga olgan o'ziga xos aralash pensiya tizimi vujudga keldi. Bu tizim: «Pensiyaga chiqish yoshini bosqichma-bosqich oshirishdan iborat. Pensiyaga chiqish yoshi 65 yoshgacha ko'tarish ishlovchilar va badal to'lovchilarning zimmasiga tushadigan og'irlikni kamaytiradi. Jamg'arib boriladigan pensiya iqtisodiy faol aholining ish joyi, mehnatga layoqati va daromadini yo'qotish bilan bog'liq turli hodisalardan ijtimoiy himoyalash shakli hisoblanadi»<sup>1</sup>.

### 1.3.1.-jadval.

#### Xorijiy mamlakatlarda pensiya ta'minoti tizimi<sup>2</sup>.

	<b>Tizimlar</b>	<b>Tizimlarning iqtisodiy mohiyati</b>
1.	Skandinaviya tizimi	Mamlakatda yashovchi barcha fuqarolar ijtimoiy ta'minotga huquqiga, barcha ishlovchilar ish haqiga qarab imtiyozlar olish huquqiga ega. Davlatning asosiy vazifasi-to'liq bandlikni ta'minlash. Ma'suliyat davlatga yuklanadi.
2.	Bismark tizimi	Jamiyat barcha a'zolariga mablag' daromad topishga ijtimoiy ta'minot uchun imkoniyat yaratiladi. Davlatning asosiy vazifasi-aholi daromadlarni oshirish va himoyalash. Mas'uliyat ishlovchiga yuklatiladi
3.	Beveridj tizimi	Har bir fuqaro kasallanganda keksayganda (xomiladorlik o'lim ijtimoiy nafaqa yoki pul ko'rinishdagi yordam bilan) kamrab olish kerak. Davlatning asosiy vazifasi-fuqarolarning minimal daromadlarni himoyalash. Ma'suliyat davlatga yuklanadi.

<sup>1</sup>Qosimova G.A., Botirov A.A. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. Monografiya. T.: Tamaddun. 2015. –B.10.

<sup>2</sup>Tadqiqot jarayonida o'rganilgan adabiyotlar asosida tuzildi.

Davlatning nazorati asosida ish beruvchilar va ishlovchilarning maqsadli badallaridan shakllanuvchi maxsus byudjetdan tashqari ijtimoiy fondlardan moliyalashtirilishi jamg'arib boriladigan pensiya tizimining xususiyatli jihatidir. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti keksalik, kasallik, baxtsiz hodisa tufayli, mehnat qobiliyatini yo'qotish holatlarini oldini olishga qaratilgan jamg'armadir.

Amaliyotchi olimlardan A.Xaitov A, M.Ziyadullaevning "O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorijiy tajribasi" nomli o'quv qo'llanmasida O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining rivojlantirish bosqichlari, pensiya ta'minotining nazariy jixatlari, huquqiy-me'yoriy asoslari berilgan. Mualliflar jahon amaliyotida keng e'tirof etilgan G.Esping-Andersen tasnifi bo'yicha davlatning ijtimoiy himoyalash tizimining uch asosiy modeli: liberal, konservativ, sotsial-demokratik modellarini bir-biridan farqlaydilar. «Ijtimoiy himoya» va «ijtimoiy ta'minot»ni inson faoliyatining normal shart-sharoitlarini ta'minlovchi mehnat, sog'liq va tabiat muhitni muhofaza qilish, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori kabi kafolatlarni kamrab olinganligi ko'rsatilgan. Shuningdek, ko'plab xorijiy mamlakatlarda va sobiq sovet ittifoqi davlatlarida pensiya ta'minoti tizimi faoliyati ko'rsatilgan.

Respublika makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishishdagi ijobiy natijalar iqtisodiy hayotning barcha sohalarini, maqsadli jamg'armalarni boshqarishda amalga oshirilayotgan islohotlarni chuqur tahlil etishni va kerakli xulosalar chiqarib borishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini yanada oshirish quyidagilarni taklif qilish mumkin:

- jamg'arib boriladigan pensiya tizimini qonuniy asoslarini takomillashtirish kerak;
- xususiy pensiya tizimini nazorat qiluvchi maxsus davlat tashkilotini belgilash va uning funksiyalarini aniqlash kerak;
- Pensiya jamg'armasidan samarali foydalanish pensiya fondlariga xizmat ko'rsatuvchi boshqaruv kompaniyalarini tashkil etish kerak;

- pensiya jamg'armalar asosida amalga oshirilgan investitsiyalarni kichik xavf-xatar darajasiga ega bo'lishi uchun qimmatli qog'ozlar ro'yxatini va investitsion portfelda ularning ulushini aniq belgilab qo'yish kerak;
- Xalq banki bo'limlari tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamgarib boriladigan pensiya hisobvarag'idagi jamg'armalar to'g'risidagi ma'lumotlar jamg'arma pensiya daftarlari oyma-oy yozilmasdan, umumiy miqdor ko'rsatilib, tasdiqlanmaydi va muxr qo'yilmaydi. Bu esa korxonalar va tashkilotlar tomonidan fuqarolarga berilgan ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlarning to'g'riligini nazorat qilishda qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Mazkur dolzarb muammoni echish barobarida fuqarolarning jamg'arma pensiya daftarchalarini to'ldirish jarayoniga o'zgartirish kiritish lozim.

## **II BOB. JAHON PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINI TAQQOSLASH NATIJARINING TAHLILI**

### **2.1. Xorijiy davlatlarla pensiya fondi sug'urta badallarini to'plash amaliyoti**

Ijtimoiy sug'urta – bu ijtimoiy sug'urta riskini kamaytirish va kompensatsiyalash chora-tadbirlari tizimidir”<sup>1</sup>. Ijtimoiy sug'urta sub'ektlari doirasi ijtimoiy yordam tizimidagiga qaraganda, ancha keng. U birinchidan, sug'urtalangan shaxs, bu tizimning markaziy sub'ekti bo'lib, uning manfaatlarini ro'yobga chiqarishga mablag'larni yo'naltirilishi kerak, bu mehnat bozorida ishsiz va daromadlarsiz qolish xavf solib turgan shaxsdir. Ikkinchidan, sug'urtalovchi – bu ish beruvchi yoki sug'urta badallarini to'lashga ma'sul bo'lgan boshqa shaxsdir. Uchinchidan, sug'urtalanuvchi, u sug'urta badallarini yig'adi, ularni harakatlantiradi va sug'urta ta'minoti taqdim qiladi. Sug'urtalovchi sifatida ko'pchilik vaziyatlarda byudjetdan tashqari fondlar chiqadilar: pensiya fondi, ijtimoiy sug'urta fondi va h.k. To'rtinchidan, boshqa sub'ektlar, ko'p hollarda bu sug'urta ta'minoti taqdim qiladigan organlar (ijtimoiy ta'minot, pensii yata'minoti organlari) dir. Masalan, davlat pensiya sug'urtasini belgilash va to'lash bo'yicha vakolatlarini aholini ijtimoiy himoyalash organlari amalga oshiradilar.


Ijtimoiy risk deganda noxush vaziyat yuz berganda sug'urtalangan shaxs moddiy ahvolining o'zgarishi tushuniladi. Ijtimoiy risk – bu tahmin qilinayotgan, ehtimolli hodisa bo'lib, unga nisbatan yuz berish vaqti, riskli vaziyat davomiyligini har doim ham aniqlab bo'lmaydi. Ijtimoiy risklarni prognoz qilish imkoniyati ham sug'urta tariflarini, ya'ni sug'urta badallari to'lanishi zarur bo'lgan stavkalarni hisoblash imkoniyatini ham bildiradi. Tizim moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun joriy ehtiyojlarni qoplashga qaraganda, bir muncha ko'proq pul mablag'larini yig'ishi zarur. Boshqacha aytganda, ijtimoiy sug'urtani pul ifodasida ta'minlash to'planganiga nisbatan kam

---

<sup>1</sup>Qosimova G.A. Pensiya ta'minotida majburiy ijtimoiy sug'urta tizimining zaruriyati. \ Moliya. 2014 yil. 6-son. – B.123.

moliyaviy resurslarni talab qilishi zarur, buning hisobiga ijtimoiy sugʻurtaning ekvivalentligiga erishiladi.

Ijtimoiy sugʻurta turlari boʻyicha asosiy tasnif quyidagicha boʻlishi mumkin: pensiya sugʻurtasi; majburiy tibbiy sugʻurta; ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan va kasb kasalliklaridan (kasb risklarini sugʻurtalash) majburiy ijtimoiy sugʻurta; vaqtinchalik mehnat layoqatini yoʻqotish, onalik, oʻlim holatlarida sugʻurtalash.



**2.1.1.-rasm. Ijtimoiy sugʻurta turlari<sup>1</sup>.**

Koʻplab mamlakatlar milliy ijtimoiy taʼminot tizimi funksional xususiyatlarining asosiy omillari ijtimoiy sugʻurtaning ixtiyoriyligi yoki majburiyligi, davlat ishtiroki darajasi, aholining ijtimoiy himoya xizmatlari bilan qamrab olinganlik darajasi, taqdim qilinayotgan ijtimoiy xizmatlar va toʻlovlar hajmi, ijtimoiy himoya maqsadlarida daromadlarni qayta taqsimlash tavsifi kabilar hisoblanadi. Biroq jamgʻarmani rivojlantirish yoʻllari va xususiyatlaridagi, xizmatlar hajmi va sifatidagi hamda moliyalashtirish usullaridagi tafovutlarga qaramay, ijtimoiy himoya tizimi yagona tamoyillar asosida amal qiladi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti(XMT) mutaxassislarining

<sup>1</sup>Tadqiqot jarayonida oʻrganilgan adabiyotlar asosida tuzildi.

fikricha, ijtimoiy sugʻurta tizimi iqtisodiy qulaylik, yakka adolatlilik va ijtimoiy samaradorlikni taʼminlaydigan tarzda qurilishi zarur. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish zararni qoplash, aholini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoniga ularning taʼsirini kamaytirish yoki oldini olish maqsadida ijtimoiy risklarni boshqarish tizimi sifatida qaraladi. Koʻpchilik ijtimoiy himoya tizimlarining vazifasi kishilar daromadlarining barqarorligini qoʻllab-quvvatlash, kerakli ijtimoiy xizmatlardan teng foydalanish huquqini taqdim qilishdan iborat.

Jahon amaliyotida ishlovchi aholi uchun yollanma ishchilar va mustaqil ravishda band aholini ahamiyatliroq, jiddiy va koʻlamli ijtimoiy risklardan muhofazalashni taʼminlaydigan ijtimoiy sugʻurta ijtimoiy taʼminot huquqini amalga oshiradigan asosiy institut hisoblanadi. Quyidagilar ijtimoiy sugʻurtaning asosiy tamoyillari hisoblanadi:

- sugʻurtalash subʼektlari ishtirokining majburiylik tavsifi;
- sugʻurtalanganlar oʻrtasidagi cheklangan birdamlik;
- sugʻurtalash jarayonini tartibga soluvchi sifatida davlatning ishtiroki;
- mehnat faoliyati davomida sugʻurtalangan daromad bilan taqqoslanuvchan toʻlovlar darajasi va tizimni moliyalashdagi ishtiroki oʻrtasidagi puxta bogʻliqlik;
- mablagʻlarning alohidalashganligi.

Belgiya, Daniya, Norvegiya, Niderlandiya, Shvetsiya kabi mamlakatlarda ishsizlarga ijtimoiy yordam oʻrniga boshqa toʻlovlar beriladi (uy– joy haqini toʻlash, bolalar nafaqasi). Ishchi kuchining amalda barcha toifalari, shu jumladan, oʻquvchilar, uy bekalari va uy xizmatkorlari ishsizlikdan majburiy sugʻurtalash tizimi bilan qoplab olingan. Portugaliya, Gretsiya, Fransiya, Italiyada bu tizim bilan mavsumiy va vaqtinchalik ishchilar qamrab olinmagan. Evropaning koʻpchilik mamlakatlarida 15- 20 yoshgacha boʻlgan yoshlar, pensiya yoshidan katta yoshdagi ishlamayotgan aholi ijtimoiy sugʻurta doirasidan tashqarida qoladi. Shvetsiyada davlat pensiyalarining

keltirilgan turlariga qo'shimcha ishchilar quyidagi tarzda daromadlar yo'qotilishini qoplashi ham mumkin. Davlat korxonalarining va ko'pchilik xususiy kompaniyalarning xizmatchilari pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lib, ularga ishlagan kompaniya va korxonalar jamoa shartnomalari shartlari bo'yicha to'lanadi. Qator banklar, kooperativlar, kompaniyalar ishchilar bilan keksa yoshga etganda mehnat layoqatini yo'qotgan vaziyatda shaxsiy sug'urta shartnomalariini tuzadi, ishchi-xodimlar sug'urta badallarini to'laydi. Bundan tashqari, qarilikda qo'shimcha kafolatlangan mablag'larga ega bo'lish uchun taxminan 2,0 % ishchilar sug'urta kompaniyalari bilan ularga 65 yoshga etganda muntazam sug'urta to'lovlarni to'lashga shartnomalar tuzadi. Ishsizlik bo'yicha g'aznalar a'zosi hisoblangan yollanma ishchilar ishsizlikdan ixtiyoriy sug'urtalash tizimi bilan qamrab olingan. Biroq buning o'rniga o'z- o'zini yollash bo'yicha ishchilar, ya'ni mustaqil ishchilarga mazkur tizim tomonidan xizmat ko'rsatiladi.

Iqtisodiy jihatidan rivojlangan mamlakatlarida, jumladan, Evropa Itifoqiga a'zo davlatlarda davlat pensiya ta'minoti tizimi uzoq yillardan rivojlanish tarixiga ega. Mazkur mamlakatlarda davlat pensiya fondlariga tushumlar ishchilar va ish beruvchilar tomonidan to'lanuvchi sug'urta badallar hisobiga amalga oshiriladi. XX asrning 70-yillariga kelib birdamlik tamoyiliga asoslangan pensiya tizimida pensiya fondlarining moliyaviy beqarorligi kuchayib pensiya fondiga to'lanadigan to'lovlarni oshirish ehtiyoji kuchayib byudjetdan transfertlari (dotatsiyalar,subvensiyalar) ni ajratish zarurati vujudga keldi. Birdamlik pensiya tizimining salbiy jihatlariga davlatning pensiya tizimining monopol holatga ega bo'lishi, tenglashtirish elementlarini kuchayishi, ijtimoiy boqimandalikni ortishi va aholini jamg'arishga bo'lgan moyilligini susayishini kiritish mumkin. Masalan AQSHning YaIMda aholi shaxsiy jamg'armalarining ulushi XX asrning 60-70-yillarida 8%ni tashkil etgan bo'lsa, 90-yillarga kelib ushbu ko'rsatkich 5%gacha tushdi. Pensiya tizimini sug'urta asosida shakllantiriladigan va aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va konstitutsion huquqlarini amalga oshirish uchun yo'naltirilgan pul

mablagʻlari fondidan foydalanishga asoslanadi. Xizmat qiluvchi pensiya fondilari uchun daromad manbalarining aniq belgilanganligi, maqsadli ishlatilishi, shakllanishi va ishlatilish muddatlarining mos kelmasligi, byudjetdan tashqari moliya-kredit tashkiloti ekanligi hamda ijtimoiy sugʻurtaning muhim elementi deb tan olinganligi kabi xususiyatlar pensiya tizimiga xosdir. Pensiya miqdori bir tomondan, jamiyatda eng kam daromadlarni himoyasini taʼminlash va ijtimoiy barqarorlikka erishish imkonini beradi, ikkinchi tomondan, ijtimoiy adolatni taʼminlash imkonini beruvchi pensiyaga chiqish oldidagi ish haqi darajasi bilan bogʻliq. Birdamlik tamoyiliga asoslangan pensiya tizimida joriy pensiya majburiyatlarini qoplash uchun zaruriy badal turlarini yigʻish amalga oshiriladi. Pensiya miqdori esa Pensiya jamgʻarmasining faoliyat natijasiga moliya bozoriga, mablagʻlarni samarali investitsiyalash darajasiga bogʻliq boʻlmay, investitsion moyillikning susayishi kabi qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Jamgʻarish tamoyiliga asoslangan xususiy pensiya tizimi badallarni kapitallashtirish va pensiya hisobini individuallashtirish tamoyili asosida shakllanadi.

Har bir mamlakatning pensiyani sugʻurtalash tizimini sifatini baholashni muhim mezonlaridan biri ishlayotgan aholini ijtimoiy sugʻurtalash bilan qamrab olish darajasi hisoblanadi. Shuningdek har bir mamlakatda amal qilayotgan pensiya tizimini sifatini belgilovchi koʻrsatkichlar qatoriga pensiya miqdorining munosibligi va etarligi, uzoq muddatda barqarorlik, tashqi omillarga nisbatan barqarorlik. XXI asr boshlarida jahonda birdamlik va jamgʻarilish tizimlariga asoslangan pensiya tizimlari amal qilmoqda. Birdamlik pensiya tizimi avlodlar, ish beruvchilar va ishlovchilar, yuqori va past ish haqi oluvchi xodimlar birdamligiga asoslangan va u birdamlik tamoyili asosida moliyalashtiriladi. Birdamlik pensiya tizimi davlatga tegishli boʻlib uni korxonalar va tarmoq miqyosida tashkil etish mumkin emas va umuman pensiyaning yuqori darajasini nisbatan qadrsizlanishiga olib kelmoqda. Birdamlik tizimining muhim jihati shundaki u qayta taqsimlash tamoyiliga asoslanganligi uchun pensionerlar oʻrtasida qashshoqlikni jiddiy kamaytiradi.

## 2.1.1.-jadval.

Xorijiy mamlakatlarda pensiya ta'minotining tajribalari<sup>1</sup>.

Mamlakatlar	Bir pensiya oluvchiga to'g'ri keladigan aholi soni	Byudjet hisobidan pensiya to'lovlari	O'rtacha ish haqi dol.	O'rtacha yoshga doir pensiya dol.	Sug'urta badallari to'lovchilar		Pensiya yoshi	
					ishlovchi	ish beruvchi	ayol	erkak
O'zbekiston	3,7	0	401,0	169,5	7,0	24,8	55	60
Tojikiston	3,8	0,1	147,8	47,7	1,0	25,0	58	63
Qirg'iston	4,2	4,0	228,9	92,5	10,0	15,0	58	63
Qozog'iston	3,4	4,4	713,9	267,6	10,0	6,0	58	63
Rossiya	1,6	4,3	940,9	311,5	0	22,0	55	60
Belarussiya	1,8	1,5	572,9	224,6	1,0	34,0	60	60
Janubiy Korea	4,4	0,6	2 903,0	1219,0	4,5	4,5	50-55	60
Xitoy	27,7	0	656,0	388,4	8,0	20,0	65	65
AQSH	3,3	0,9	4 300,0	2100,0	7,5	7,5	65	65
Ispaniya	2,2	1,4	2 652,0	1190,0	4,7	23,6	65	65
Buyuk Britaniya	2,2	-	3065,0	700,0	10	10,2	60	65
Yaponiya	4,0	3,1	3900,0	717,0	7,7	7,7	65	65

<sup>1</sup>Davronov Sh.Z. Davlat pensiya ta'minoti tizimi barqaror rivojlanmoqda yanada takomillashtirilmoqda. Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2014 yil. 21 noyabr. -B.8.

Mehnat layoqatini yo‘qotish, ishini yo‘qotish hamda onalik va bolalikni qo‘llab-quvvatlashga ijtimoiy to‘lovlarning belgilangan summalaridan majburiy pensiya badallari ushlab qolinadi va yagona jamg‘arilib boruvchi pensiya fondiga o‘tkaziladi. Shunday qilib, ko‘rsatilgan to‘lovlarni oluvchilarda majburiy pensiya badallarining tegishli darajasi jamg‘ariladi. Mehnat layoqatini yo‘qotish va boquvchisini yo‘qotish holatlarida oylik ijtimoiy to‘lovlar uzoq muddatli to‘lovlar hisoblanadi. Shuningdek, mehnat layoqatini yo‘qotish bo‘yicha ijtimoiy to‘lov mehnat layoqatini yo‘qotgan butun davrga, ammo oluvchiga pensiya tayinlangan kundan ortiq bo‘lmagan muddatga to‘lanadi, boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha ijtimoiy to‘lov esa boqimandalarning voyaga etish yoshiga qadar yoki oliy o‘quv yurtlarida kunduzgi shaklda o‘qiyotganlarga 23 yoshgacha to‘lanadi. Shuningdek, majburiy ijtimoiy sug‘urta tizimi iqtisodiy o‘sishga, ijtimoiy adolat va aholi farovonligining yaxshilanishiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shadi.

Majburiy ijtimoiy sug‘urta tizimiga ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning har bir sub’ekti o‘z qiziqishini bildiradi:

- ishchilar (va ularning oila a‘zolari) ijtimoiy risklar vujudga kelganda birdamlik ijtimoiy sug‘urtasiga tayanishlari mumkin;
- ish beruvchilar ijtimoiy ajratmalarni to‘lagan holda ijtimoiy risklarni qoplashga xarajatlarni kamaytiradilar, bunda ijtimoiy tenglikni shakllantirish uchun javobgar hisoblanadilar;
- davlat ijtimoiy sub’ektlarga o‘zaro sug‘urtalash jamiyatlarini tuzish huquqini (qonunlar orqali) bergan holda, ishchilarni ijtimoiy himoyalashni to‘g‘ridan–to‘g‘ri moliyalashtirish majburiyatini o‘z zimmasidan soqit qiladi.

Fuqarolarning moddiy farovonligi, jamiyatdagi ijtimoiy kelishuvchilik va birdamlikka ko‘maklashish uchun zarur bo‘lgan aholini ijtimoiy himoyalash tizimi ijtimoiy davlatning uzviy qismidir.

O‘zbekiston oldida aholi ijtimoiy nochor qatlamlari turmush darajasini tez va sifatli ko‘tara oladigan ijtimoiy himoya tizimini yaratish va ayni vaqtda iqtisodiyot rivojlanishini to‘xtatib qo‘yadigan ta’sir ko‘rsatmaslik vazifasi

turibdi. Bu vazifaning echimi egiluvchan, yangi iqtisodiy sharoitlarga tez moslasha oladigan, jahonda erishilgan eng yaxshi yutuqlarga asoslangan va rivojlanishning milliy xususiyatlarini hisobga oladigan ijtimoiy himoya dasturlarini yaratishdan topilishi mumkin. Shu sababli ijtimoiy modernizatsiya, birinchi navbatda, muvozanatlashgan, ishchilar, ish beruvchilar va davlatning manfaatlarini hisobga oladigan ijtimoiy adolat va yakka javobgarlik tamoyillarini uz ichiga olgan pensiya tizimini yaratish orqali yuz beradi.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, pensiya ta'minoti sohasidagi o'zgartirishlar natijasida tizimni mukammallashtirish zarur:

- imtiyozli pensiyalar va belgilangan muddat xizmat qilgani uchun tayinlanadigan pensiyalar bo'yicha pensiya ta'minoti tizimini tartibga solish;
- belgilangan muddatdan ilgari pensiyaga chiqish tartibini bekor qilish;
- ijtimoiy to'lovlar doirasini kengaytirish;
- yakka tartibda shaxsiy hisobga olish tizimini rivojlantirish.
- majburiy ijtimoiy sug'urta to'lovlarni hisob-kitob qilish bazasini takomillashtirish.

## **2.2.Rivojlangan mamlakatlardagi pensiya tizimining hozirgi zamon muammolari**

Rivojlangan mamlakatlardagi pensiya ta'minoti qonunchiligi bir necha o'n yillar davomida xalqaro kelishuvlar va aholini ijtimoiy himoyalashni tartibga solishning asosiy predmeti bo'lib kelmoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik uchun nafaqalarni to'lovlari bo'yicha qonunchilik tizimini muvofiqlashtirish va migrantlarning bu boradagi xuquqlarini himoyalash bo'yicha tashabbusi 1962 yilda 118-sonli xalqaro Konvensiyaning qabul qilinishiga olib keldi. Konvensiya ijtimoiy himoyaning teng huquqlilik prinsiplarini belgilab berish bilan birga bu boradagi xalqaro huquq normalarini ham tartibga solishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Konvensiyaga ko'ra pensiya to'lovlari yoshga doir (qarilik), boquvchisini yo'qotganlik va nogironlik bo'yicha to'lanishi belgilangan. Keyinchalik 1982

yilda qabul qilingan 157-sonli xalqaro Konvensiya mavjud turli xil munozarali holatlarni bartaraf etish imkonini berdi.

Har bir mamlakatdagi pensiya ta'minoti tashkiliy, moliyaviy va boshqa jihatlar bilan bir-biridan farqlanadi. Lekin, ularning birlashtirib turuvchi jihat sifatida pensiya ta'minotining "uch pog'onali" tizimga asoslanishini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Pensiya ta'minoti tizimiga davlat, nodavlat yoki xususiy (ishlab chiqarish, korporativ) pensiya fondlari va sug'urta institutlari kiradi. Bu shakldagi tizim qator rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan bo'lib muntazam takomillashtirib borilmoqda. Odatda davlatning pensiya ta'minoti tizimi butun mamlakat aholisini yoki uning alohida qatlamlarini qamrab oladi. Nodavlat pensiya fondlari (NPF) notijorat tashkilotlari hisoblanadi. Ularning faoliyat sohasi cheklangan miqdordagi qatnashuvchilar bilan bog'liq. Ko'pincha ushbu rolni yirik korxonalar, kompaniyalar va korporatsiyalarning mehnat kollektivlari, profsoyuzlar bajaradilar. Uchinchi element sifatida esa individual yoki fuqarolar guruhlarining pensiya ta'minoti bilan shug'ullanuvchi xususiy investitsiya fondlari (XIF), sug'urta tashkilotlarini keltirish mumkin.

Ko'pchilik mamlakatlardagi pensiya yoshi XMTning tavsiyalariga ko'ra erkaklar va ayollar uchun bir xilda ya'ni 65 yosh qilib belgilangan. Evropa mamlakatlarida pensiya yoshini belgilash ushbu tavsiyalardan birmuncha farq qiladi. Masalan pensiyaga chiqish yoshi, Fransiyada 60 yosh, Daniyada 67 yosh, Italiyada ayollar uchun 57 yosh va erkaklar uchun 62 yosh, Gretsiyada esa pensiya yoshi faqatgina ayollar uchun 60 yosh etib belgilangan. Shu bilan birga to'liq pensiya olish uchun zarur bo'lgan ish staji uzunligi Evropa mamlakatlarida turlicha qilib belgilangan va bu boradagi jinsiy farqlar yo'qotilgan. Masalan, Daniya va Italiyada zarur ish staji 40 yil, Angliyada 27 yil, Fransiyada 37,5 yil, Shvetsiyada 30 yil, Gretsiyada 11 yildan 35 yilgacha, Belgiyada erkaklar uchun 45, ayollar uchun esa 40 yil etib belgilangan. Pensiya tizimining faoliyat yuritishidagi muhim masalalardan biri bu moliyaviy mablag'larning etarlilik darajasidir. Pensiya tizimini moliyalashtirishning ikkita yo'nalishi mavjud: pensiyalarni to'lash uchun xarajatlarni qoplash va

jamg'arilib boruvchi zahira fondini shakllantirish. Bu boradagi rivojlangan mamlakatlar jumladan Ening tajribasini o'rganish va uning maqbul tomonlarini mamlakatimizda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Quyidagi jadval ma'lumotlarida Evropa Ittifoqiga kiruvchi ayrim mamlakatlarda pensiya tizimini moliyalashtirish manbalari tarkibi ko'rsatib o'tilgan.

### 2.2.1. -jadval.

#### Evropa Ittifoqining ayrim mamlakatlarida pensiya sug'urtasini moliyalashtirish manbalari<sup>1</sup>.

(foizda)

Mamlakatlar	Fuqorolarning pensiya sug'urtasi badallari	Ish beruvchilarning pensiya sug'urtasi badallari	Davlatning pensiya sug'urtasi fondidagi ishtiroki
Belgiya	7,5	8,6	Subvensiya 20 foiz (yil xarajatlari miqdoridan)
Buyuk Britaniya	5-9	5-10,4	Subvensiya
Germaniya	9,35	9,35	Subvensiya
Italiya	7,15	17,06	Subvensiya
Ispaniya	4,8	24	Subvensiya
Fransiya	6,6	8,2	-
Gretsiya	4,75	9,5	Ish stajiga ega bo'lmaganlar xarajatlarini qoplash
O'zbekiston	7,0	24,8	-

Jadval ma'lumotlarini tahlil etish asosida shuni ta'kidlash mumkinki, Evropa Ittifoqiga mamlakatlarning aksariyatida xodimlarning ish haqidan ajratmalar miqdori Respublikamizda qabul qilingan me'yorlardan bir muncha yuqori. Shuning bilan birga korxonalar va tashkilotlar tomonidan pensiya fondiga ajratiladigan mablag'lar miqdori sezilarli darajada quyi miqdorlarda

<sup>1</sup> Tserkasevich L.V.Sovremennie tendentsii sotsialnoy politiki v stranax Evropeyskogocoyuza. SPb. 2012. - S.109.

oʻrnatilgan. Bu esa korxonalar va tashkilotlarning katta miqdordagi mablagʻlarini qayta investitsiyalash imkoniyatlarini yaratadi. Davlat tomonidan pensiya toʻlovlarini qoplash boʻyicha subvensiyalarning ajratilishi, aholining davlat ijtimoiy siyosatiga va moliyaviy muassasalarga boʻlgan ishonchini kuchaytiradi. Turli shakldagi moliyaviy tanazzullarning oldini oladi. Shu bilan birga mamlakat moliyaviy tizimining asosiy manbai boʻlgan korxonalar moliyasini shakllanishi va uning moliyaviy barqarorligini taʼminlaydi.

Amerika Qoʻshma Shtatlarida 1974 yilda Kongress yollanma xizmatchi pensiya daromadining muhofazasi Qonuni chiqarildi, xususiy pensiya rejalari uchun mezonlar oʻrnatildi, federal boʻlim maqomidagi Pensiya Daromadlarini Kafolatlash Korporatsiyasi ularni tatbiq etishga koʻmaklashdi. Xususiy pensiya rejalari Pensiya Daromadlarini Kafolatlash Korporatsiyasidan sugʻurta xarid qilishi lozim, agarda kompaniya pensiya toʻlay olmasa, uni korporatsiya toʻlaydigan boʻldi. Federal pensiya tizimlarining eng yirigi - AQSH Fuqaro Xizmati Pensiya tizimiga ham, federal yollanma xizmatchilarga ham hukumat tomonidan mablagʻ ajratiladi. Qoʻshimcha ravishda asosan ishga yollanuvchi fuqarolar, pensiya bilan taʼminlanmaydigan va oʻz pensiya rejalari xizmatlariga yarasha toʻlanmasligiga ishonganlar oʻz daromadlarini bir qismini maxsus shaxsiy pensiya hisobiga ajratadi. Shaxsiy pensiya hisoblari banklar, jamgʻarma va qarz uyushmalari, kredit ittifoqlari, sugʻurta kompaniyalari kabi moliyaviy institutlar tomonidan boshqariladi. Federal hukumat bu reja xizmatidan foydalanuvchi shaxslarga daromad soligʻi boʻyicha imtiyozlar berish orqali ham madad beradi. Shaxsiy pensiya hisobiga qoʻyilgan mablagʻlar foyda foizi barpo etadi, u oʻz-oʻzidan hisobga qoʻshilib boraveradi. Shaxsiy pensiya hisobidagi hosil qilingan foydaga, pul undan chiqarilmaguncha, soliqlar solinmaydi.

Hozirgi davrda Shvetsiya - dunyoda ijtimoiy taʼminotga ajratilgan mablagʻlari davlat xarajatlarini YaIM dagi ulushi 42 % dan yuqori boʻlgan yagona mamlakatdir. Pensiyalar (qarilik, xizmat yillar uchun, nogironlik boʻyicha, boquvchisini yoʻqotganlik hodisasi) va nafaqalar (uy-joylarga, taʼlim

olish, ishsizlik bo'yicha) ijtimoiy ta'minotning muhim turlaridan hisoblanadi. Oddiy shvetsiyalikning pensiya ta'minoti darajasi pensiyaga ketish chog'ida turmush tarzini tubdan o'zgartirmaslik imkonini beradi. Shvetsiyada pensiyalarning istalgan turini hisoblash asosiga me'yorlashtirish tamoyili qo'yilgan. Pensiya yashash minimumiga yaqinlashadigan bazaviy summaga foizlarda aniqlanadi. Pensiya ta'minotining ushbu turi bo'yicha sug'urtalash, albatta, barcha iqtisodiy faol aholiga jumladan, kichik tadbirkorlarga ham tatbiq etiladi, uni olishning asosiy sharti kamida uch yil yollanib ishlashdir, bundan tashqari, bu pensiya to'lovi uchun 30 yillik mehnat staji kerak.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi shved «umumiy farovonlik davlati»ning asosiy unsuri hisoblanadi. Davlat ijtimoiy nochor aholi toifalariga ijtimoiy ne'matlarni qayta taqsimlash vazifasini o'z zimmasiga oladi. Jamiyatda yuzaga kelgan ehtiyojlar darajasiga mos ijtimoiy himoya turlarining xilma-xilligi (pensiyalar, nafaqalar, uylarda qariyalarning yashashini ta'minlash) ni saqlaydi. «Shvetsiyada ishlagan yillar uchun pensiya olish huquqiga 65 yoshga etgan shaxslar ega. Pensiya hajmi uni oluvchining daromadiga bog'liq, ammo ish haqi yuqoriroq bo'lgan 30 yillik mehnat stajining taxminan 60 foizini tashkil qiladi. Davlat pensiya fondlari korxonalar ish haqi fondidan ma'lum foiz ajratmalari hisobidan shakllanadi. Jismoniy shaxslardan pensiya ajratmalari undirilmaydi. Aholining pastroq ish haqi to'lanadigan toifalari bilan bir qatorda barcha pensionerlar turar joy dotatsiyasidan foydalanadi»<sup>1</sup>.

Ko'pgina dunyo mamlakatlari moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida davlat byudjeti defitsitini qisqartirish maqsadida pensiya yoshini uzaytirish yo'lini tanladi. Fransiya erkaklar uchun pensiya yoshini 60 yoshdan 62 yoshga, ayollar uchun 55 yoshdan 57 yoshga, Ispaniya 2013-2027 yillar uchun ayollar va erkaklar pensiya yoshini 65 yoshdan 67 yoshga, Vengriya 62 yoshdan 65 yoshga, Gretsiya 2015 yilda 61 yoshdan 63 yoshga, Irlandiya 2014 yilda 66

---

<sup>1</sup>Tavakkalov Sh. Shvetsiyaning ijtimoiy ta'minot tizimi. Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2014 yil. 21 noyabr. -B.179.

yoshga, 2028 yilda 68 yoshga choʻzishgan, Ukrainada ayollar va erkaklar pensiya yoshini 62 yosh qilib belgilandi”<sup>1</sup>.

### 2.2.2.-jadval.

#### Dunyo mamlakatlarida mehnatga layoqatli aholi sonining oʻzgarishi (foizda) <sup>2</sup>.

Mamlakatlar	Mehnatga layoqatli aholi umumiy sonidagi ulushi		
	2010 yil	2050 yil	farqi
AQSH	62	56	-6
Evropa ittifoqi	60	50,3	-9,7
Yaponiya	57	44,6	-12,4
Xitoy	68	53,7	-14,3
Rossiya	67,4	52,1	-15,3

Quyidagi rasmda dunyo mamlakatlarida mehnatga layoqatli aholi sonining oʻzgarishi berilgan. «Mamlakatda ishsizlar sonining koʻpayishi oʻz-oʻzidan pensiya fondlariga toʻlanuvchi sugʻurta badallarining kamayishiga olib keldi. Global moliyaviy inqiroz tufayli jahonning iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlaridan tortib, rivojlanish yoʻliga endigina kirib borayotgan davlatlarda ham korxonalar va tashkilotlarining birin-ketin inqirozga uchrashi natijasida ishsizlar sonining keskin oʻsib ketishi kuzatildi. Pensiya oluvchi pensionerlar soni nisbatan oʻsib borayotgan hozirgi davrda, ushbu pensiya fondlariga toʻlanuvchi badallar miqdorining kamayib borishi, demografik omillar tufayli byudjet defitsitiga uchragan milliy pensiya fondlarining moliyaviy inqiroz holatlarini yanada chuqurlashtirdi. Masalan, Fransiyada ishsizlar soni dunyo mamlakatlarida global moliyaviy inqiroz boshlanishidan avval 2008 yilda mamlakatdagi ishga layoqatli aholi umumiy soniga nisbatan oʻrtacha 7,8 foizni tashkil etgan boʻlsa, 2012 yildan boshlab ushbu koʻrsatkich oʻrtacha 10,5 foizni tashkil etdi. Global moliyaviy inqiroz taʼsiri yanada katta

<sup>1</sup>Vaxabov A. Oxundedaeva M. Jahon pensiya tizimini rivojlantirish xususiyatlari. // Moliya. – Toshkent. 2014.- № 2.- B. 89.

<sup>2</sup>Abdullaev Z. A. Xorijiy davlatlarda pensiya taʼminoti tizimini isloh etish muammolari. Pensiya taʼminoti tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari toʻplami. Toshkent. 2014 yil. 21 noyabr. -B.15.

bo'lgan Gretsiya, Ispaniya kabi davlatlarda ushbu ko'rsatkich 26-28 foizni tashkil etib, ularni iqtisodiy inqiroz jar yoqasiga keltirib qo'ydi»<sup>1</sup>.

Davlat majburiy pensiya fondlarining daromad manbai bo'lib, asosan ishchi va xizmatchilar ish haqidan to'lanuvchi va ularni yollagan ish beruvchilar tomondan to'lanadigan ijtimoiy sug'urta badallari hisoblanadi. Buning oqibatida daromadlardan turli pensiya fondlariga ijtimoiy sug'urta badallarini to'lovchi shaxslar soni va ular tomonidan to'lanuvchi badallar miqdori keskin kamayib ketdi. Aholini ijtimoiy himoya qilish sug'urtalash asosida tashkil etilgan davlatlarning xarajatlar tizimida e'tiborga loyiq o'rinni o'z ixtiyorisiz ishsiz bo'lib qolganlarga vaqtinchalik iqtisodiy yordam sifatida beriluvchi xarajatlar egalladi. Bundan tashqari, kasbi yoki malakasini o'zgartirish bo'yicha zarur xarajatlar ham aynan ijtimoiy sug'urta fondlari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Lekin demografik jarayonning bir vaqtning o'zida bir-biriga uyg'unlashgan holda yuz berishi dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida davlat majburiy pensiya fondlari byudjetlarida defitsit holatini yuzaga kelishiga sababchi bo'ldi va defitsitning hajmi yildan-yilga oshib bormoqda

«Evropa mintaqasida ijtimoiy ta'minot institutlarining xizmatlariga bo'lgan talab va ehtiyoj ortib bormoqda. Bunday ehtiyoj olib borilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy siyosat va maqsadli dasturlarni isloh qilishda, aholi daromadlarini inflyasiyadan himoyalashda namoyon bo'lmoqda»<sup>2</sup>.

Tadqiqot bo'yicha olib borilgan monografik kuzatuvlar shuni ko'rsatmoqdaki, nodavlat pensiya jamg'armalari tabiatiga ko'ra ikki tomonlama xususiyatga ega. Birinchidan, bu jamg'armalar jamiyatdagi mehnatga layoqatsiz bo'lgan a'zolarining moddiy holatini yaxshilash vazifasini hal qilish maqsadini ko'zlaydigan muhim ijtimoiy institut deb hisoblanadilar. Ular yordamida odamlar keksalik davrida

---

<sup>1</sup>Abdullaev Z. A. Xorijiy davlatlarda pensiya ta'minoti tizimini isloh etish muammolari. Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2014 yil. 21 noyabr. -B.14.

<sup>2</sup>Vaxabov A., Rajabov Sh. Evropa Ittifoqi mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti tendentsiyalari. // Moliya. – Toshkent. 2015.- № 3.– B. 120.

davlat tomonidan kafolatlangan eng kam miqdordan yuqoriroq daromad olish imkonini qo‘lga kiritadilar. Ishchilar o‘z pensiya badallarini mustaqil tartibga solish yoki bu vazifalarni kasaba uyushmalari orqali o‘z ish beruvchilarining zimmasiga o‘tkazish imkoniga egadirlar. Ikkinchidan, bu jamg‘armalar mamlakatning iqtisodiy tizimida muayyan vazifani bajaradigan o‘ziga xos moliyaviy institutlardir. Bunday institutlar fuqarolarning jamg‘arilgan pullarini uzoq muddatli investitsiyalash maqsadida jamlash bilan shug‘ullanadilar.

Mamlakatda bozor munosabatlarining takomillashtirish va xalqaro iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi moliyaviy muassasalarda, umuman xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda uzoq muddatli mablag‘larga bo‘lgan talabni kuchaytiradi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga nazar tashlasak, muomalaga “uzun” moliyaviy resurslarni taklif etishda sug‘urta kompaniyalari, investitsiya va pensiya fondlari kabi bankdan tashqari moliya institutlari o‘rni beqiyosdir. Xalqaro amaliyotda uzun pullarni iqtisodiyotga taklif etishda nodavlat pensiya fondlari ham muhim moliyaviy bo‘g‘inlardan hisoblanadi. Chunki nodavlat pensiya jamg‘armalarining moliyaviy aktivlari jismoniy shaxslarning ajratmalari hisobiga shakllantiriladi va ular pensiyaga chiqqunga qadar taraflarning kelishuviga asosan pensiya jamg‘armasi ixtiyorida bo‘ladi. Shuni ta’kidlash joizki, moliya va qimmatli qog‘ozlar bozori yuqori darajada rivojlangan etakchi davlatlar nodavlat pensiya jamg‘armalarining moliyaviy resurslari mamlakat YaIMda ulushi yuqori ekanligini ko‘rish mumkin. Shu nuqtai nazardan nodavlat pensiya jamg‘armalari tomonidan mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilayotgan uzun moliyaviy aktivlar ulushini ayrim xorijiy davlatlar misolida ko‘rib chiqamiz. Taraqqiy etgan davlatlarda nodavlat pensiya jamg‘armalari yuqori darajada rivojlangan. “Mazkur jamg‘armalari dastlab AQSH, Kanada hamda Buyuk Britaniyada shakllangan bo‘lsa, XX asrning oxiriga kelib boshqa davlatlarda tarqaldi”<sup>1</sup>. Nodavlat pensiya jamg‘armalari moliyaviy resurslari ham muddati

---

<sup>1</sup> Мошенский С.З. Рынок ценных бумаг: трансформационные процессы. Учебное пособие. -М.: «Економика». 2010. –Б114.

jihatidan uzun moliyaviy resurs hisoblanadi. “Tahlil ma’lumotlari asosan AQSHda 2006 yilda nodavlat pensiya jamg’armalari aktivlari YaIMga nisbatan 78,2 foizni tashkil etgan bo’lsa, 2010 yilga kelib ushbu ko’rsatkich 51,6 foizga pasaygan. Kanadada ham nodavlat pensiya jamg’armalarining moliyaviy resurslari yuqori bo’lib, lekin tahlil qilingan 2006-2010 yillarda YaIMga nisbatan mos ravishda 64,9-39,1 foiz atrofida o’zgargan. Germaniyada esa, tahlil qilingan davrda ushbu ko’rsatkichlar 12,9-12,3 foiz atrofida bo’lgan”<sup>1</sup>.

Jahon tajribasi ko’rsatadiki, aholini kreditlashga eng ko’p qiziquvchan muassasalari kredit - moliya institutlari hisoblanadi. Bular - xususiy pensiya jamg’armalari, ssuda-jamg’arma uyushmalari, kredit ittifoqlaridir. Maxsus kredit institutlarining bir qismi iqtisodiyot va xo’jalik faoliyatining muayyan sohasini yoki aholining muayyan tabaqasini moliyalashtirish bilan shug’ullanadi. Ya’ni mablag’larni omonatga jalb etadi, qimmatli qog’ozlarni chiqaradi, sug’urta polislarini sotadi, shu kabi yo’llar bilan faoliyat ko’rsatadi. Xususiy pensiya jamg’armalari ssuda sarmoyalari bozorida, qimmatli qog’ozlar bozorida, kredit-moliya tizimida muhim zamonaviy hodisadir. Xususiy pensiya jamg’armalari imkoniyatlarining mohiyati omonatchilarning mablag’larini to’plash, saqlash, ko’paytirish, pensiya to’lovlarini ta’minlash hisoblanadi. Fondlar aktivlarining asosini qimmatli qog’ozlar bilan bo’lgan moliyaviy operatsiyalar tashkil etadi.

### **2.3. Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi davlatlaridagi fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimining tahlili**

Byudjetdan tashkari fondlar Federal byudjeti tarkibida jamlantiriladigan fondlar bo’lib, ularning har biri uchun mablag’lar manbalari, har bir manbadan mablag’ tushishi normalari va shartlari, shuningdek shu mablag’laridan foydalanilishi mumkin bo’lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Rossiya Federatsiyasida byudjetdan tashqari fondlar qatoriga «Pensiya fondi»,

<sup>1</sup>Axmedov M. Iqtisodiyotda “uzun” moliyaviy resurslar salmog’ini oshirishda nodavlat pensiya jamg’armasining ahamiyati. // Moliya. -Toshkent. 2012. №2. – B.130.

«Majburiy ijtimoiy sugʻurtalash fondi», «Bandlik fondi», «Majburiy tibbiy sugʻurtalash fondi» va «Yoʻl fondi» kiradi.

Rossiya Federatsiyasi byudjetdan tashqari fondlarining daromad manbalari quyidagilardan iborat<sup>1</sup>.

- maxsus, maqsadli soliqlar, vzoslar va yigʻimlar;
- korxonalar, tashkilotlar, foydasidan ajratmalar;
- byudjet mablagʻlari;
- tijorat faoliyatidan olingan foyda;
- Markaziy bank va banklardan olingan qarzlilar;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar.

“Rossiya Federatsiyasida 2015 yila ajratmalar stavkasi Pensiya fondiga 22,0 foiz, Majburiy ijtimoiy sugʻurtalash fondiga 2,9 foiz, Majburiy tibbiy sugʻurtalash fondiga 5,1 foiz belgilangan”<sup>2</sup>. Rossiya Federatsiyasida byudjetdan tashqari fondlar Federal byudjet tarkibida jamlantiriladigan fondlar boʻlib, ularning har biri uchun mablagʻlar manbalari, har bir manbadan mablagʻ tushishi normalari va shartlari, shuningdek shu mablagʻlaridan foydalanilishi mumkin boʻlgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Rossiyada pensiya tizimini isloh etish pensiya tizimining daromadlarini maksimal koʻpaytirishga va xarajatlarini qisqartirishga qaratilgan. Shu maqsadda pensiyaga chiqish uchun zarur boʻlgan minimal mehnat staji miqdori oshirilmoqda, jamgʻarish tizimidagi qatnashuv darajasi qisqarmoqda, barvaqt pensiyaga chiqishning shartlari kuchaytirilmoqda. Ish haqidan toʻlanadigan badal meʼyori oshirilmoqda va istiqbolda toʻlovlarni oʻzi ortishi rejalashtirilmoqda. Rossiyada pensiyaga chiqish huquqini rubldan ballarni hisoblash huquqiga oʻtkazish pensiya fondi xarajatlarini minimallashtirgan holda uni moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga qaratilgan. «Hozirgi vaqtda Oʻzbekistonda pensiyalarning oʻrtacha miqdori oʻrtacha ish haqiga nisbatan 37,5 foizni tashkil etmoqda. Bu koʻrsatkich

---

<sup>1</sup> [http://studopedia.ru/7\\_111400\\_dohodi-gosudarstvennih-vnebyudzhethnih-fondov-rossiyskoy-federatsii-i-territorialnih-gosudarstvennih-vnebyudzhethnih-fondov.html](http://studopedia.ru/7_111400_dohodi-gosudarstvennih-vnebyudzhethnih-fondov-rossiyskoy-federatsii-i-territorialnih-gosudarstvennih-vnebyudzhethnih-fondov.html) Dohodi gosudarstvennix vnebyudjetnix fondov Rossiyskoy Federatsii i territorialnix gosudarstvennix vnebyudjetnix fondov. internet sayti maʼlumotlari.

<sup>2</sup> <http://online-buhuchet.ru/edinyj-socialnyj-nalog/> internet sayti maʼlumotlari.

Rossiyada 25,7 foiz, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa 23-28 foizdan iborat. Joriy 2014 yilda mamlakatimizda bu ko‘rsatkichni 41 foizga etkazish ko‘zda tutilmoqda»<sup>1</sup>. “Rossiyada o‘rtacha qoplash koeffitsenti miqdorini 2012 yildagi 34 foizdan 2030 yilda 20 foizga qisqartirish va 2015 yilda mehnat bozoriga kirib keluvchi yosh avlod uchun birdamlik pensiya tizimida o‘rtacha ish haqidan 35 yil mobaynida to‘liq pensiya to‘lovlarini to‘lagan holda qoplash koeffitsentining 40 foiz bo‘lishi rejalashtirilmoqda”<sup>2</sup>.

### 2.3.1.-jadval.

#### Xorijiy mamlakatlarda pensiya oluvchilarning soni<sup>3</sup>.

	Mamlakatlar	Aholi soni. mln.kishi	Pensiya oluvchilar soni	
			mln.kishi	Aholiga nisbatan foizda
1.	O‘zbekiston	30,5	2,9	9,51
2.	Ozorbajon	9,4	1,3	13,83
3.	Armaniston	3,1	0,5	16,13
4.	Belarussiya	9,5	2,4	25,26
5.	Qozog‘iston	16,7	2,4	14,37
6.	Qirg‘iston	5,6	0,5	8,93
7.	Latviya	2,1	0,6	28,57
8.	Litva	3,0	1,1	36,67
9.	Moldaviya	3,6	0,6	16,67
10.	Rossiya	143,7	41,0	28,53
11.	Tojikiston	7,8	0,6	7,69
12.	Ukraina	45,1	13,6	29,96
13.	Estoniya	1,3	0,4	30,77


<sup>1</sup>Karimov I. “ 2014 yil yuqori o‘shish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. \ Xalq so‘zi. 2014 yil. 18 yanvar.

<sup>2</sup>Vahabov A.V., Raxmonov Sh.I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining pensiya tizimini isloh etishga ta‘siri. Ijtimoiy hamkorlik - iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish omili. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2014 yil. 16 aprel. -B.29.

<sup>3</sup>Davronov Sh.Z. Davlat pensiya ta‘minoti tizimi barqaror rivojlanmoqda yanada takomillashtirilmoqda. Pensiya ta‘minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2014 yil. 21 noyabr. -B.9.

Pensiya tizimi kasallik, keksalik, baxtsiz hodisa tufayli mehnat qilish qobiliyatini yo‘qotish holatlarining oldini olish-ga qaratilgan ijtimoiy himoyadir. Ijtimoiy bozor iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan mamlakatlarda pensionerlarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish vazifasi an’anaviy ko‘rinishda, ya’ni fuqaro pensiya huquqining aksariyat qismi uning o‘zi tomonidan mustaqil ravishda ishlab topiladi.

Agar qonun asosida o‘rnatilgan pensiya minimumi miqdorini ta’minlash uchun mablag‘ etmasa Federal byudjetdan qoplanadi. Rossiyada erkaklar 60 yoshdan, ayollar 55 yoshdan boshlab pensiya yoshiga etgan hisoblanadi. O‘rtacha umr ko‘rish yoshi 66 yoshni tashkil etadi. Aholi 20-25 yillik ish stajiga ega bo‘lishi yoki eng kamida 5 yillik ish stajiga ega bo‘lgan taqdirda pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar.



### **2.3.1.-rasm. Qozog‘iston Respublikasining ijtimoiy fondlar tizimi<sup>1</sup>.**

Yangi pensiya ta’minoti tizimiga o‘tish davrida mehnat pensiyasi uch qismdan iborat. Talab qilinadigan sug‘urta stajiga ega bo‘lgan shaxslarga davlat

<sup>1</sup>Tadqiqot jarayonida o‘rganilgan adabiyotlar asosida tuzildi.

tomonidan kafolatlangan tayanch pensiya. Bunday tizimda mehnat pensiyasi kamida 5 yillik ish stajiga ega bo'lganlarga tayinlanadi. Sug'urta stajining yakka (shaxsiy) tartibda hisobga olish tizimi joriy etilgunga qadar har yili uchun qo'shimcha to'lovlar. Yakka tartibdagi hisobvaraqlari joriy etilgandan so'ng har bir sug'urtalanuvchining shaxsiy hissasiga qarab hisoblanadigan sug'urta pensiyasi, ya'ni bu pensiya jamg'arilgan sug'urta badallarini va pensiya olish huquqini qo'lga kiritish vaqtida taxminiy o'rtacha umr ko'rish muddatini hisobga olgan holda tayinlanadi.

Qozogiston Respublikasida byudjetdan tashqari fondlarni shakllantirish bilan mamlakat iqtisodiyotini tartiblash, tashqi iqtisodiy faoliyatni yaxshilash, ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish hamda aholiga ijtimoiy nafaqa va pensiyalarni to'lash imkoniyati yaratildi. Qozog'iston Respublikasida ijtimoiy fondlarga byudjetdan tashqari fondlar maqomi berilgan. Qozog'iston Kozogiston Respublikasi hukumati va Qozog'iston Respublikasi Prezidentining qonun hujjatlari bilan tasdiqlanadi. Qozog'iston Respublikasi Pensiya fondi pensiya ta'minotini moliyaviy boshqarish maqsadida tashkil qilingan, mustaqil moliya-kredit tashkiloti hisoblanadi. Qozog'iston Respublikasining jamg'arib boriladigan pensiya fondi Qozog'iston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq, pensiya vzoslarini yig'ish va pensiyalarni to'lash bo'yicha faoliyat olib boradigan, shuningdek, pensiya aktivlarini investitsion boshqaradigan yuridik shaxs hisoblanadi. Qozog'iston Respublikasining jamg'arib boriladigan pensiya fondi majburiy vzoslarni to'playdi, fondning investitsion portfelini shakllantirish uchun mablag'larni turli qimmatli qog'ozlarga joylashtiradi. Xorijiy mamlakatlarda pensiyalarni to'lash tajribalarini o'rganish asosida soha samaradorligining ortishi, tezkor va aniq hisobotlar shakllanishi, pensiya tayinlanishi va to'lanishida inson omilini kamaytirish orqali jamg'arma mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi albatta.

O'zbekistonda fuqarolarning davlat kafolatlarini moliyaviy ta'minlash uchun Pensiya jamg'armasi tashkil etilib daromadlari majburiy to'lovlar va

badallar, yagona ijtimoiy to‘lov tushumlari, alohida yuridik shaxslarning ijtimoiy sug‘urta badallari, fuqarolarning sug‘urta badallari, jismoniy shaxslar ayrim toifalarining sug‘urta badallari, majburiy ajratmalar shakllantiriladi.

### 2.3.2.-jadval.

#### Xorijiy mamlakatlarda pensiyalarni to‘lash tahlili<sup>1</sup>.

№	Mamlakatlar	To‘lovlar		
		Bank	Pochta bo‘limi	Boshqa idoralar
1.	O‘zbekiston	36,3	60,7	-
2.	Ozorbajon	99,9	0,1	-
3.	Armaniston	25,7	74,3	-
4.	Belarussiya	44,4	50,9	4,7
5.	Qozog‘iston	62,5	37,5	-
6.	Qirg‘iston	30,6	69,4	-
7.	Moldaviya	10,1	89,9	-
8.	Rossiya	49,0	44,7	6,3

Bu jarayonda ish beruvchi hamda ishlovchilar tomonidan qonunchilikka muvofiq byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ajratmalarga doir, jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari bo‘yicha va boshqa byudjetdan tashqari jamg‘armalar bilan hisob-kitoblar olib boriladi. Jamg‘armaga to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lanishi qonunchilikka muvofiq belgilangan vazifalarni to‘la amalga oshirilishi ta’minlanadi:

- Kelajakda asosiy pensiya tizimi sifatida qabul qilingan pensiya ta’minotining taqsimot tamoyillarini qo‘llash;
- Pensiya ta’minotini birdamlik va jamg‘arish tamoyillarini o‘zida mujassamlashtirgan pensiya ta’minoti tizimiga o‘tkazish;
- Xususiy pensiya tizimi uchun asosiy tamoyil sifatida jamg‘arish tamoyilini tanlash;
- Ixtiyoriy pensiya ta’minoti institutlarini rivojlantirish.

<sup>1</sup>Davronov Sh.Z. Davlat pensiya ta’minoti tizimi barqaror rivojlanmoqda yanada takomillashtirilmoqda. Pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2014 yil. 21 noyabr. -B.10.

### **III.BOB. XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA O‘ZBEKISTON PENSIYA TA’MINOTI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

#### **3.1.Pensiya ta’minoti tizimi islohotlarining asosiy yo‘nalishlari**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov ta’kidlaganlaridek, «... Turli muassasa va xizmatlar, birinchi navbatda, pensiya, ijtimoiy ta’minot va tibbiy xizmat ko‘rsatish muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va zarur darajada nazorat qilish masalalari»<sup>1</sup> pensiya islohotlariga zaruriyat tug‘iladi.

Ko‘pgina mamlakatlar bir qator pensiya islohotlarini amalga oshirdilar. Chexiyada pensiya bilan ta’minlashni isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari zararli va og‘ir mehnat uchun imtiyozlarni bekor qilish, ish yurituvchilarning sug‘urta qilingan badallariga qo‘shimcha badallar kiritish, to‘langan badallar va olingan pensiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirish, ko‘p rejali pensiya sug‘urta tizimini rivojlantirish, alohida pensiya rejaları imkoniyatlarini kengaytirish, pensiya yoshini erkaklar va ayollar uchun 2015-2020 yillarda 65 yoshgacha oshirishdan iborat. Xorijiy davlatlarda pensiya tizimi islohotlari davlatning ijtimoiy siyosatining vazifalarini e’tiborga olgan holda, amalga oshirish ishlari bajariladi. Pensiya islohotlari jarayonida jahon jamoatchiligining asosiy vazifasi, “avlodlar birdamligi” tamoyili asosida faoliyat ko‘rsatayotgan Pensiya fondi faoliyatini rivojlantirishdan iborat. Pensiya tizimlarini isloh qilishning uch varianti bo‘lishi mumkin: birinchisi – taqsimot tizimining ayrim parametrlarini isloh qilish, ikkinchisi – majburiy jamg‘arib boriladigan tizimga o‘tish, uchinchi – bosqichma-bosqich taqsimot va jamg‘arma unsurlarini o‘zida mujassam etgan ko‘p darajali tizimga o‘tish. Quyidagi rasmda pensiya tizimini isloh etishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rsatilgan.

---

<sup>1</sup>Karimov I. “2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2015 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. \ Xalq so‘zi. 2015 yil. 18 yanvar.

**Pensiya tizimini isloh qilish chora-tadbirlari<sup>1</sup>.**

<b>Qabul qilinadigan chora-tadbirlar</b>	<b>Chora-tadbirlarni amalga oshirgan mamlakatlar</b>
Pensiya badali stavkasini o'zgartirish	Ruminiya, Rossiya
Pensiya tizimining ikkinchi darajasiga kirish	Slovakiya, Vengriya
Pensiya tizimining ikkinchi darajasida pensiya badali stavkasini o'zgartirish	Ruminiya, Litva
Pensiyaga chiqish yoshini oshirish	Vengriya
Pensiyaga barvaqt chiqishni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish	Polsha, Vengriya, O'zbekiston

Hozirgi davrda jahondagi pensiya tizimlarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari<sup>2</sup>:

1. Taqsimot (taqsimlovchi) tizimning parametrik tavsiflariga o'zgarishlar kiritish:

– pensiyaga chiqish yosh chegaralarini ko'tarish va zaruriy mehnat staji davomiyligini uzaytirish. Masalan, AQSH Kongressi 2000-2027 yillarda pensiyaga chiqish yoshini 65 yoshdan 67 yoshga ko'tarish to'g'risidagi qarorni tasdiqladi; Portugaliyada pensiyaga chiqarish yoshi asta-sekin uch yilga, ya'ni 65 yoshga ko'tarildi (2005 yildan erkaklar uchun 2016 yildan ayollar uchun); Fransiya va Yaponiyada pensiya yoshi 65 yoshga, Shvetsiyada 67 yoshga etkazildi; pensiyalarni indeksatsiyalash tartibini o'zgartirish. Italiyada 1992 yildan, Fransiya esa 1987 yildan pensiyalar ilgari kabi o'rtacha ish haqi o'sishi sur'atlari asosida emas, balki iste'mol narxlari o'sishi sur'atlariga qarab indeksatsiyalanadi. Yaponiya 1994 yilda yalpi ish haqi bo'yicha indeksatsiyadan sof ish haqi bo'yicha indeksatsiyalashga, 2000 yildan esa iste'mol narxlari o'sishi asosida indeksatsiyalashga o'tdi;

<sup>1</sup>Пенсионные системы в период кризиса: Региональный доклад по странам Европы и Центральной Азии. Документ всемирного банка. 2009. –С. 15.

<sup>2</sup>Vaxabov D.R. Pensiya tizimini isloh qilishning jahon tajribasi // Moliya. – Toshkent. 2010.- № 4.– B. 23.

- pensiya tayinlash koeffitsentini kichraytirish (pensiyaning ish haqiga nisbati); Fransiyada islohotlar natijasida pensiya tayinlash oxirgi eng qulay 10 yildagi ish haqi emas, balki 25 yillik ish haqi asos qilib olinadi (2008 yilga kadar har yili bir yilga oshirib boriladi); Italiyada jami mehnat staji davomidagi ish haqi asos qilib olinadi (ilgari 5 yil olingan);
- bir qator mamlakatlarda sugʻurta badallari miqdori oshirilib, ajratmalar olinadigan baza kengaytirilmoqda: Masalan, Belgiya, Italiya, Shvetsiya, Shveysariya, Portugaliyada sugʻurta badallarini hisoblashda ish haqi chegarasi bekor qilingan; badallar toʻlashda tayanch ish haqi miqdoriga mukofotlar va taʼtil davri nafaqalari ham qoʻshiladi (Fransiya, Germaniya, Gollandiya va Avstriyada bu tartib joriy etilgan).

## 2. Pensiya tizimini tarkibiy isloh qilish (jamgʻarib boriladigan sxemalarni joriy etish):

- taqsimlovchi va jamgʻarib boriladigan pensiya tizimlarini uygʻunlashtirish: Shvetsiyaning yangi pensiya tizimi majburiy taqsimot va jamgʻarma tizimlarini, shuningdek, ixtiyoriy pensiya mablagʻlari (jamgʻarmalari)ga asoslangan tizimni oʻz ichiga oladi;
- majburiy kasbiy jamgʻarib boriladigan sxemalarni tartiblarni joriy etish va davlat taqsimot tizimini muhtojlikni maxsus oʻrganish asosidagi pensiya taʼminoti tizimiga aylantirish. Bunday tartib Avstraliyada amalga kiritilgan; Islandiyada ham davlat pensiya taʼminoti muhtojlik darajasini tekshirishga oid tizimga asoslangan;
- yakka tartibdagi majburiy jamgʻarib boriladigan sxemalarni amalga kiritish: 20 asrning 90-yillarida Lotin Amerikasidagi koʻpgina mamlakatlarda pensiya tizimlari tubdan isloh qilindi; bu islohotlarning asosiy umumiy belgisi – jamgʻarib boriladigan pensiya tizimiga oʻtish yoki majburiy jamgʻarib boriladigan sxemalarni oʻz ichiga olgan koʻp darajali modellari joriy etish boʻlgan.

Shu bilan birga mamlakatlarda erta pensiyaga chiqish imtiyozlarni tugatishda qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Polsha erta pensiya olish

rejalaridan voz kechishni ma'qul ko'rdi. Vengriya erta pensiyaga chiqishni inkor etib, kech pensiyaga chiquvchilarga bonuslar berishni va'da qildi. Latviyada erta yoshda pensiyaga chiqishni 2012 yil 1 yanvardan boshlab to'xtatdi. Bu davlatlar qatoriga Belgiya, Gretsiya, Norvegiya, Xitoyni kiritish mumkin. Ukraina va Ruminiya esa bosqichma-bosqich erta pensiyaga chiqishdan voz kechish yo'lini tanladi.

Tarixga nazar tashlasak, Germaniyada birinchi marta pensiya 1880 yilda 70 yoshga to'lgan fuqarolarga davlat tomonidan pensiya ijtimoiy to'lov sifatida berildi. Keyinchalik 70 yoshga to'ladigan aholi soni kam bo'lganligi munosabati bilan 65 yoshga pasaytirilgan. Hozirgi kunga kelib ko'pchilik mamlakatlarda fuqarolarning pensiya yoshi 65 yoshni tashkil qilmoqda. Evropa va AQSHda 2060 yilga kelib, pensiya yoshini erkaklar va ayollar uchun bir xil 70 yosh sifatida belgilash ko'zda tutilgan.

«Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda pensiya tizimlarini isloh qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar umuman olganda, ehtiyorkorlik bilan asta-sekin muhim tarkibiy o'zgartirish o'rniga ko'proq parametrik tuzatishlar ko'rinishida o'tkazilmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, pensiya ta'minoti darajasini ko'paytirish, buning uchun qo'shimcha zahiralarni jalb etish, ishchining pensiyasini bevosita uning o'z mehnati bilan qo'shgan hissasiga bog'lash hamda nodavlat pensiya tizimini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur»<sup>1</sup>.

Xulosa qilib aytganda, Jahon banki tomonidan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida qisqa muddatli chora-tadbirlar uchun qisqa muddatga amal qiluvchi rejalar ishlab chiqish; uzoq muddat uchun ayollar va erkaklarning pensiya yoshini tenglashirish va oshirish; erta pensiyaga chiqishni cheklash va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirishni tavsiya etiladi. Pensiya ta'minoti sohasini modernizatsiya qilish va takomillashtirishga qaratilgan pensiya tizimi islohotlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

---

<sup>1</sup>Beknazarov Z. Pensiya tizimining jahon tajribasini O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari. // Moliya. -Toshkent. 2015. -№2. – B.108.

### **3.2. O‘zbekistonda jahon pensiya ta‘minotining ilg‘or tajribalaridan foydalanish yo‘llari**

«...Iqtisodiyotimizning jadal va mutanosib rivojlanib borayotgani aholi hayot darajasi va sifatini izchil oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar hajmi o‘tgan yili 23,2 foizga oshdi. Aholining jon boshiga to‘g‘ri keladigan real daromadlar esa 10,2 foizga ko‘paydi»<sup>1</sup>. Pensiya sohasining barcha jabhalarini qamrovli ravishda izchil rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Davlat pensiya tizimini 2012-2016 yillarda yanada barqaror rivojlantirish, maqbul ijtimoiy muhit shakllantirish orqali fuqarolarga kafolatlangan davlat pensiyalarini taqdim etish sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha” Kompleks dasturi tasdiqlandi. Joriy yilda pensiya tizimi uchun strategik jihatdan muhim bo‘lgan quyidagi yo‘nalishlarda ishlar tashkil etildi.

Birinchidan, davlat pensiya ta‘minotining normativ-huquqiy bazasi takomillashtirildi. Davlat pensiya ta‘minoti tizimining barqaror va oqilona tizimini shakllantirish uchun qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, bu borada qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan zamonaviy me‘yorlarni ishlab chiqishga jiddiy e‘tibor berildi. Bunda, 1993 yilda qabul qilingan “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga 2011 yildan tegishli o‘zgartirishlar kiritilib, o‘z ahamiyatini yo‘qotgan ayrim imtiyozlar va mehnat faoliyatining alohida davrlarini ish stajiga hisoblash mexanizmlari takomillashtirildi. Unga muvofiq, yoshga doir pensiyalarni tayinlashda mehnat stajining quyi chegarasi belgilandi. Shuningdek, Qonundagi kelgusida kiritilgan o‘zgartirishlar fuqarolar pensiyasini hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqi o‘tgan yillardagi ish haqlarini pensiya tayinlanadigan kundagi ish haqi darajasiga keltirish uchun Vazirlar

---

<sup>1</sup>Karimov I. “2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2015 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. \ Xalq so‘zi. 2015 yil. 18 yanvar.

Mahkamasi tomonidan belgilab beriladigan tartibga asosan amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori asosida davlat pensiya va nafaqalarni tayinlanishi va ularning to'lovi monitoringini amalga oshirilishini tartibga solish bo'yicha tasdiqlangan yo'riqnomaga muvofiq fuqarolarga pensiyalarni tayinlash va to'lovini amalga oshirish mexanizmi to'liq o'z ifodasini topdi. Shu bilan birga, bugungi kunda davlat pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish ishlari davom etmoqda.

Ikkinchidan, tizimni zamonaviy axborotlashtirish orqali pensiya xizmati ko'rsatish ko'lami yaxshilandi. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tizimida texnik modernizatsiya qilish masalasiga ustuvor vazifa sifatida alohida e'tibor berilar ekan, avvalambor, pensiya ta'minotini tashkil etishda avtomatlashtirilgan axborot tizimini ommaviy ravishda joriy etilishi, bu esa sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni jadal kirib borayotganligidan dalolat beradi.

Rivojlangan mamlakatlarda davlat pensiya ta'minoti tizimi bilan bir qatorda davlat tasarrufida bo'lmagan xususiy pensiya ta'minoti ham mavjud. Uning zarurligi quyidagi ikki asosiy sabablardan kelib chiqadi<sup>1</sup>. Birinchidan, bozor munosabatlari va demokratiya fuqarolarga ko'proq erkinlik va davlat tasarrufidan mustaqil bo'lish imkonini berish bilan bir qatorda, ularga o'z hayotlarini farovon qilish, jumladan, ijtimoiy jihatdan ta'minlanish borasida katta mas'uliyat yuklaydi. Ikkinchidan, har bir davlat qanchalik rivojlangan bo'lishidan qat'iy nazar, moliyaviy imkoniyatlarining chegarasi mavjud. Davlat fuqarolarni, ular mehnat qobiliyatlarini yo'qotgunlariga qadar bo'lgan ijtimoiy himoyalanganlik darajasida ijtimoiy ta'minlash imkoniga ega emas. Shuning uchun har bir davlat fuqarolarning ijtimoiy ta'minlanganlik darajasini o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda belgilaydi. Amaldagi pensiya tizimi keskin islohotlarni jadal davom ettirish,

---

<sup>1</sup>Qosimova G.A., Karimova Z.X. Byudjetdan tashqari fondlar. O'quv qo'llanma. –T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2009. –B21.

Pensiya jamg'armasi balansida yuzaga keladigan taqchillikni bartaraf qilish va aksincha, ijobiy qoldiqqa erishish imkoniyatlarini beradi.

Mamlakatimizda zamonaviy va jahondagi andozalarga mos ravishda byudjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil etish mustaqilligimizning dastlab kunlaridanoq boshlandi. Bu holat mamlakat iqtisodiyoti oldida turgan juda keskin o'zgarishlarni amalga oshirish sharoitida sodir bo'lib, ular o'z navbatida, byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalarning oldida turgan birinchi darajali vazifalarni ham aniqlab berdi. Ular tarkibida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mamlakat aholisini ijtimoiy himoyalash birinchi galdagi vazifa sifatida turadi.

### 3.2.1.-jadval.

#### O'zbekiston Respublikasining pensiya tizimining rivojlanishi<sup>1</sup>.

Yil	Jarayon
1991	Milliy Pensiya tizimi faoliyat yurita boshladi
1993	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tashkil etildi
1994	O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni amalga kiritildi
1996	Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasiga aylantirildi
1997	Pensiya jamg'armasi mablag'lari Davlat byudjeti tarkibida konsolidatsiyalashdi
2000	Pensiya jamg'armasiga davlat maqsadli jamg'armasi makomi berildi
2004	Pensiya jamg'armasi Moliya vazirligining idoraviy tashkiloti etib belgilandi
2005	Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi tashkil etildi
2009	Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining barcha pensiya tayinlovchi va TMEX birliklari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tarkibiga o'tkazildi

<sup>1</sup>Mamadjanov I.T. Vektor razvitiya pensionnix sistem stran mira. Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2014 yil. 21 noyabr. -B.25.

Hozirgi kunda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish sharoitida davlatning maqsadli jamg'armalari mablag'larini oshirish, ulardan oqilona foydalanish masalalari bugungi kunda hukumatimiz uchun bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Bugungi kunda dunyo hamjamiyati oldida turgan global muammolardan biri - bu barcha mamlakatlarda byudjetdan tashqari jamg'armalardan oqilona foydalanish xisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlarini shakllantirish hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlarni o'z vaqtida to'lash va hisobga olish amaliyoti hozirgi kunda yaxshilandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, amaldagi pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish lozim. Buning uchun.<sup>1</sup>:

- birinchidan, tizimni isloh qilishning yaqin o'n yillik davrga mo'ljallangan konsepsiyasi ishlab chiqilishi va pensiya ta'minoti, nafaqalar tayinlash, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimlari, unga taaluqli davlat hamda jamoat organlari faoliyatni bu boradagi yutuqlar, xorij mamlakatlarining to'plagan ilg'or tajribalari hisobga olingan holda jiddiy isloh qilishni kerak;
- ikkinchidan, keksalarning asosiy daromad manbai pensiya hisoblagani bo'is ularning daromadlari va turmush darajasini yanada oshirish uchun amaldagi pensiya ta'minoti tizimini pensionerlarga har xil imtiyozlar berish, tenglashtirish ko'zda tutadi. Bunday hol esa davlat Pensiya jamg'armasi mablag'lari asossiz sarflanishiga, pensiyalarni mablag' bilan ta'minlash masalalarida muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi barobarida nodavlat pensiya ta'minotining boshqa shakllari ham tashkil etilishi va rivojlantirilishi zarur;
- uchinchidan, pensiya ta'minoti tizimida amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan islohotlar konsepsiyasining muvofiq ravishda uning huquqiy asoslari

---

<sup>1</sup> Beknazarov Z. Pensiya jamg'armasi – ijtimoiy jamg'armalarning asosiy bo'g'ini. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilishda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2015 yil. 27 fevral. -B.109.

takomillashtirish lozim.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, Jamg'ariladigan Pensiya fondlari aktivlarining asosini qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar tashkil etadi. Xususiy pensiya fondlari pul mablag'larini uzoq muddatga joylaydi, xususiy va davlat qimmatli qog'ozlarini sotib oladi. Xususiy pensiya fondi passiv operatsiyalari asosini korporatsiya va korxonalaridan keladigan resurslar tashkil etadi, tushumning 20-30 foizi ishchi va xizmatchilar badallaridan iborat.

Ekspertlarning hisob-kitobi bo'yicha qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlarning bir foiz oshishi to'lanadigan pensiyalar miqdorini bir necha foiz oshirishga imkon beradi. Boshqacha qilib aytganda, qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun ajratilgan mablag'lar o'sha qimmatli qog'ozlarni hozirgi real qiymati bo'yicha sotilgandan so'ng fuqarolarga pensiya ko'rinishida qaytariladi. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasi uchun uzoq muddatli sarmoya etishmasligi va unga keskin ehtiyoj mavjud sharoitda xususiy pensiya fondlari birinchidan, uzoq muddatli kreditlash fondlarini oshirish imkonini bersa, ikkinchidan, bunday tuzilmalarning yaratilishi byudjetning ijtimoiy ta'minot xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldiki, pensiya tizimini faqat davlat tomonidan moliyalashtirish etarli samara bermaydi. Hozirgi kunda pensiya tizimini moliyalashtirishning bir vaqtning o'zida uch yo'nalish: minimal pensiyani kafolatlaydigan davlat pensiya tizimi, professional assotsiatsiya yordamida o'zining ish beruvchilariga qo'shimcha pensiyani shakllantirish, fuqarolar imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda alohida, xususiy pensiyani ta'minlash belgilangan. AQSH, Gollandiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveysariya, Italiya kabi xorijiy mamlakatlar shu tajribalardan foydalaniladi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga badallarni qayta taq-simlashning davlat mexanizmi yordami bilan individual hisobraqamlardan foydalangan holda, moliyaviy ta'minlash, pensiya tizimini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari belgilangan yagona badallarni hisobga olib, pensiya miqdorini belgilashdir. Jamg'arib boriladigan pensiyani olish uchun muayyan jamg'arma stajiga ega

bo‘lish va qonunda ko‘rsatilgan pensiya yoshiga etish zarur. Jamg‘arish tamoyiliga asoslangan pensiya tizimida badallar kapitallashtiriladi va pensiya hisobi individual hisob asosida shakllantirilib boriladi, shaxsiy hisoblarda jamg‘arilgan jamg‘arma badallari pensiya darajasini belgilaydi.

### 3.2.2.-jadval.

#### Fondlashtirilgan va fondlashtirilmaydigan (Pay-as-you-go) tizimini taqqoslash<sup>1</sup>.

№	Solishtirish mezonlari	Fondlashtirilmaydigan (Payg) tizimi	To‘liq fondlashtirilgan
1.	Maqsadi	Ijtimoiy adolatni ta‘minlash	Iqtisodiy samaraga erishish
2.	Demografik omil ta‘siri	To‘g‘ridan-to‘g‘ri funksional tarzda ta‘sir etadi.	Ta‘sir darajasi deyarli yo‘q, har kim o‘zi uchun o‘zi jamg‘aradi.
3.	Moliyalash tirish manbalari	Joriy sug‘urta badali joriy pensiya to‘lovi uchun sarflanadi	Joriy sug‘urta badallari shaxsiy hisobraqamlarida joriy sug‘urtalanuvchining o‘zi uchun jamg‘ariladi

Jahon tajribasini tahlil qilish tajribalari shuni ko‘rsatadiki, pensiya ta‘minoti manbalarini yaratishning hozirgacha ikki usuli mavjud. Mazkur ikki tizimni quyidagi jadval asosida solishtirish mumkin. **PAYG (Pay-as-you-go)** so‘zining lug‘oviy tarjimai – “Ishlayotgan ekansan to‘lab qo‘y”. Dunyoning qariyb 80 ta mamlakatida bu kabi jamg‘armalar mavjud. Masalan, Shimoliy Afrikada **“Old Age Grant”**, Yangi Zelandiyadagi **“Supparannuation”** pensiya dasturini misol keltirish mumkin. Tizim shunday ishlaydi. Faraz qilaylik, T avlod pensiyaga chiqdi, uning uchun  $T_{K1}$  avlod pensiya to‘laydi,  $T_{K1}$  uchun esa  $T_{K2}$  va xokazo. Demak hech qanday fond yaratilmaydi. Hech kim o‘zi uchun to‘lamaydi, kim pensiya fondiga ajratma o‘tkazayotgan bo‘lsa, demak u o‘zidan oldin pensiyaga chiqqan fuqaroning pensiya mablag‘lari manbai bo‘lib qoladi. Biroq,

<sup>1</sup> Mirzamahmudov M.M. Maqsadli jamg‘armalardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. -T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2013. –B13.

ayrim mamlakatlar shu tizim ostida maxsus investitsion fondlarni yaratadilar. Masalan, Ispaniyadagi “Ijtimoiy Himoya Rezervi”, Fransiyadagi “Pensiya rezerv fondi”, Kanadaning “Pensiya fondi” (*Supparannuation*) investitsiyalar orqali shakllangan bo‘lsa, AQSH ijtimoiy himoyasi AQSH g‘azna obligatsiyalariga kiritilgan investitsiyalar hisobiga shakllanadi. To‘liq fondlashtirilgan tizimda fuqaro o‘zi uchun kelajakdagi pensiya manbalariga ega bo‘ladi. Fuqaroning har bir ajratmasi aniq bir bank yoki shu bilan shug‘ullanuvchi tashkilot hisobraqamiga kelib tushadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov ta’kidlaganlaridek, keksalarimizga ko‘rsatilayotgan maxsus yordamlar, ularning moddiy, ijtimoiy, maishiy ta’minotini yaxshilashga qaratilgan ishlarimiz bilan birga, ular yashayotgan xonadonlar, mahallalar, qishloq va shaharlarimizni obod va farovon qilish borasidagi faoliyatimiz va ularning amaliy samarasi, hech shubhasiz, keksalarimizning hayotini yanada mazmunli va fayzli qilishga qaratilgani bilan alohida e’tiborlidir. «Bu borada birinchi navbatda yolg‘iz qariyalar, pensioner va nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimini yanada mustahkamlash va rivojlantirishning davlat dasturi qabul qilingani va bu yo‘nalishda 5-6 yilga mo‘ljallab rejalashtirilgan ishlarimiz ayniqsa e’tiborga sazovor, deb hisoblayman»<sup>1</sup>. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov ijtimoiy jamg‘armalar xususida aholining ijtimoiy himoyalashning amaldagi mexanizmini tanqidiy baholash va mustahkamlash, uning aniq toifadagi kishilarga qaratilishini kuchaytirish lozim bo‘ladi, bu ishlarning hammasiga davlatning maqsadli jamg‘armalari mablag‘larini keng jalb etish lozim, deb alohida ta’kidlab o‘tganlar. Shunday ekan davlatning maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari fuqarolarining ijtimoiy hayotini yanada yaxshilashga qaratilganligi dolzarb masala ekanligini qayd qilish lozim. Fuqarolarning pensiyalar bilan ta’minlashga oid munosabatlar qonunlar vositasida tartibga solinishi yanada takomillashtirilishi

---

<sup>1</sup>Karimov I. Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. \ Xalq so‘zi. 2015 yil. 5 dekabr.

lozim. “Fuqarolarga pensiya tayinlashning amaldagi tizimini takomillashtirishni, mavjud ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirishni davrning o‘zi taqozo qilmoqda. Pensiya ta’minotining xususiylashtirish dasturi iqtisodiyotga investitsiyalarning ichki imkoniyatlarini taqdim etadi. Aynan, moliya sohasida pensiya islohotlariga ehtiyoj va iqtisodiy islohotlarning kengaytirilgan sohasi kesishadi. Kapital bozori rivojlanishi, pensiya fondlari pullarini investitsiya qiladigan moliyaviy dastaklarini taqdim etish uchun juda muhim. Shu tarzda iqtisodiyotga investitsiyalarni yo‘naltirish jarayonida davlat, jamg‘arilgan va xususiy pensiya ta’minotini moliyalashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya fondining investitsion faolligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

– Jamg‘arma mablag‘larining ishonchli moliyaviy instrumentlarga joylashtirilayotganligi ustidan nazoratni olib borish va maslahatlarni berish yuqori bilimga ega moliya bozori professional ishtirokchilariga yuklatilishi lozim.

– Aholi jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi to‘g‘risida etarli bilimga ega bo‘lishi uchun ommaviy axborot vositalarida, korxonalar, tashkilotlar va mahalla fuqarolar yig‘inlarida tushuntirish va targ‘ibot ishlarini kuchaytirish lozim.

– Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimi mablag‘lari fuqarolarni ixtiyoriy pensiya badallari hisobiga ham shakllanishini inobatga olib, ixtiyoriy pensiya badallarini rag‘batlantirish maqsadida, jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqalariga to‘langan badal summalarini respublikada ish haqi miqdori oshirilgan holatlarda mutanosib ravishda oshirib borilishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Biz “Jahondagi pensiya ta’minoti tizimlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimizda jahon tajribasini o‘rganish va pensiya tizimini moliyalashtirish borasida mavjud bo‘lgan muammolarni hal etish bo‘yicha quyidagi xulosalar va takliflar tayyorladik.

Ijtimoiy sug‘urtaning asosiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:

- sug‘urtalash sub’ektlari ishtirokining majburiyligi;
- sug‘urtalanganlar o‘rtasidagi birdamlik;
- sug‘urtalash jarayonini tartibga soluvchi sifatida davlatning ishtiroki;
- mehnat faoliyati davomida sug‘urtalangan daromad bilan taqqoslanuvchan to‘lovlar darajasi va tizimni moliyalashtirishdagi ishtiroki o‘rtasidagi bog‘liqlik.

Xalqaro amaliyotda uzun pullarni iqtisodiyotga taklif etishda nodavlat pensiya fondlari ham muhim moliyaviy bo‘g‘inlardan hisoblanadi. Chunki nodavlat pensiya jamg‘armalarining moliyaviy aktivlari jismoniy shaxslarning ajratmalari hisobiga shakllantiriladi va ular pensiyaga chiqqunga qadar taraflarning kelishuviga asosan pensiya jamg‘armasi ixtiyorida bo‘ladi. Shuni ta’kidlash joizki, moliya va qimmatli qog‘ozlar bozori yuqori darajada rivojlangan etakchi davlatlar nodavlat pensiya jamg‘armalarining moliyaviy resurslari mamlakat YaIMda ulushi yuqori ekanligini ko‘rish mumkin.

Jahon banki tomonidan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida qisqa muddatli chora-tadbirlar uchun qisqa muddatga amal qiluvchi rejalar ishlab chiqish; uzoq muddat uchun ayollar va erkaklarning pensiya yoshini tenglashirish va oshirish; erta pensiyaga chiqishni cheklash va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirishni tavsiya etildi.

Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston pensiya tizimining samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- O‘zbekistonda pensiya tizimini bosqichma-bosqich isloh etishning va xususiy jamg‘arib boriladigan pensiya fondlarini tashkil etish;

- pensiya yoshini oshirish hamda erkaklar va ayollar uchun pensiyaga chiqish yoshlarini tenglashtirish;
- O‘zbekistonda pensiya tizimidagi turli imtiyozlarni va pensiyaga barvaqt chiqishni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- mamlakatimizda o‘rtacha pensiyaning o‘rtacha ish haqidagi ulushini oshirishga, ya’ni qoplash koeffitsientini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Respublikamizda amaldagi pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirish lozim:

- birinchidan, tizimni isloh qilishning yaqin o‘n yillik davrga mo‘ljallangan konsepsiyasi ishlab chiqilishi va pensiya ta’minoti, nafaqalar tayinlash, ijtimoiy ta’minot va ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimlari, unga taaluqli davlat hamda jamoat organlari faoliyatni bu boradagi yutuqlar, xorij mamlakatlarining to‘plagan ilg‘or tajribalari hisobga olingan holda jiddiy isloh qilishni kerak;
- ikkinchidan, keksalarning asosiy daromad manbai pensiya hisoblagani bois ularning daromadlari va turmush darajasini yanada oshirish uchun amaldagi pensiya ta’minoti tizimini pensionerlarga har xil imtiyozlar berish, tenglashtirish ko‘zda tutadi. Bunday hol esa davlat Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari asossiz sarflanishiga, pensiyalarni mablag‘ bilan ta’minlash masalalarida muammolar yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimi barobarida nodavlat pensiya ta’minotining boshqa shakllari ham tashkil etilishi va rivojlantirilishi zarur;
- uchinchidan, pensiya ta’minoti tizimida amalga oshirilishi mo‘ljallanayotgan islohotlar konsepsiyasining muvofiq ravishda uning huquqiy asoslari takomillashtirish lozim.

Jamg‘arib boriladigan pensiya fondining investitsion faolligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- Jamg‘arma mablag‘larining ishonchli moliyaviy instrumentlarga joylashtirilayotganligi ustidan nazoratni olib borish va maslahatlarni berish yuqori bilimga ega moliya bozori professional ishtirokchilariga yuklatilishi lozim;

- hozirgi sharoitda aholi jamg'arib boriladigan pensiya tizimi to'g'risida etarli bilimga ega bo'lishi uchun ommaviy axborot vositalarida, korxonada, tashkilotlar va mahalla fuqarolar yig'inlarida tushuntirish va targ'ibot ishlarini kuchaytirish lozim;
- jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi mablag'lari fuqarolarni ixtiyoriy pensiya badallari hisobiga ham shakllanishini inobatga olib, ixtiyoriy pensiya badallarini rag'batlantirish maqsadida, jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqalariga to'langan badal summalari respublikada ish haqi miqdori oshirilgan holatda mutanosib ravishda oshirib borilishi lozim.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

### **I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari.**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -Toshkent. "O'zbekiston". 2013. -40 b. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. -T.: Adolat. 2013. -406b. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
3. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. 2013 yil. 27 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni. 1993 yil. 3 sentyabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
5. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1996 yil.
6. O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonuni. 2014 yil 29 oktyabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
7. O'zbekiston Respublikasining «Soliq va byudjet siyosatining 2015 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni. 2014 yil 4 dekabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

### **II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi me'yoriy hujjatlari**

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrdagi «Fuqarolarning pensiya taminoti tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida «gi PF 4161- sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1252-son Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 30-son Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentyabrdagi “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huqukiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 252-son Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrdaagi “O‘zbekiston Respublikasi 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2070- son qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 22 dekabrdaagi “O‘zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2455- son qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 18 fevraldaagi «Keksalarni e‘zozlash yili» davlat dasturi to‘g‘risida»gi 2302-son Qarori.

### **III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.**

15. Karimov I.A. Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirish – bosh maqsadimizdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. \ Xalq so‘zi. 2014 yil. 5 dekabr.
16. Karimov I. Inson manfaatlari ustuvorligini ta’minlash – barcha islohot va o‘zgarishlarimizning bosh maqsadidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi. \ Xalq so‘zi. 2008. fevral.
17. Karimov I. A. “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. T.: “O‘zbekiston”. 2012. -36 b.

18. Karimov I. “Bosh maqsadimiz-keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. \\  
Xalq so‘zi. 2013 yil. 19 yanvar.
19. Karimov I. “Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi \\  
2013 yil. 8 dekabr.
20. Karimov I. “ 2014 yil yuqori o‘sish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. \\  
Xalq so‘zi. 2014 yil. 18 yanvar.
21. Karimov I.A. Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirish – bosh maqsadimizdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. \\  
Xalq so‘zi. 2014 yil. 5 dekabr.
22. Karimov I.A. “2015 yil iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2015 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston

Republikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. \ Xalq so'zi. 2015 yil. 18 yanvar.

23. Karimov I. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. \ Xalq so'zi. 2016 yil.

24. Karimov I. A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir.O'zbekiston. NMIU.2015. -304 b.

#### **IV.Asosiy adabiyotlar.**

25. Карчевский В.В., Андросова Л.Д., Окунева Л.П., Смирнова Е.Е. Целевые бюджетные и внебюджетные фонды. Учебное пособие. – М.: “Вузовский учебник”. 2011. -224 с.

26. Кадомцева С.В. Государственные финансы. Учебное пособие.- М.: «ИНФРА -М». 2010. –Б.344.

27. Mirzamahmudov M.M. Maqsadli jamg'armalardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. -T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2013. –B13.

28. Xaitov A., Ziyadulaev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorijiy tajribasi. O'quv qo'llanma. –T.: “Adolat”. 2009. -172 b.

29. Умурзаков Б.Х. Проблемы пенсионного обеспечения в условиях рыночных отношений. Монография. – Т.: Фан. 2005. – 173 с.

30. Qosimova G.Karimova Z. Byudjetdan tashqari fondlar. O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2009. -212b.

31. Qosimova G.A. “Pensiya ta'minoti nazorati” fanidan kurs ishini bajarish yuzasidan uslubiy ko'rsatma. T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2015. -31b.

32. Qosimova G.A., Botirov A.A. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. Monografiya. T.: Tamaddun. 2015. -108 b.

### **V. Qo'shimcha adabiyotlar**

33. Pensions at a Glance 2013 OECD AND G20 INDICATORS.

34. Федоров Л.В. Пенсионный фонд Российской Федерации. Учебник. – М.: “Юрайт”. 2012. - 396с.

35. Сахарова Н.П. Страхование. Учебное пособие.- М.: «ПРОСПЕКТ». 2012. -732 с.

36. Тютюриков Н.Н. Налоговая системы зарубежных стран. Учебник. - М.: Издательство-торговая корпорация Дашков и К.2010. –С. 266.

37. Широкова Е.К. Страховые взносы в государственные внебюджетные фонды РФ. Монография. – М.: Издательство "Волтерс Клувер". 2010. – 178 с.

38. Щербаков В.А., Костяева Е.В. Страхование. Учебное пособие.- М.: КНОРУС. 2012. -312 с.

### **VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlarva hisobotlar, dissertatsiya avtoreferatlari.**

39. Abdullaev Z. A. Xorijiy davlatlarda pensiya ta'minoti tizimini isloh etish muammolari. Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2014 yil. 21 noyabr. B.13-21.

40. Axmedjonov K. Ichki auditni tashkil etishda xalqaro tajriba. // Moliya. – Toshkent. 2015. -№4. – B.29-35.

41. Beknazarov Z. Pensiya jamg'armasi – ijtimoiy jamg'armalarning asosiy bo'g'ini. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilishda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2015 yil. 27 fevral. -B.107-109.

42. Beknazarov Z. Pensiya tizimining jahon tajribasini O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari. // Moliya. -Toshkent. 2015. -№2. – B.105-108.

43. Barton M. Waring, Robert S.Merton. Pension Finance: Putting the Risks and Costs of Defined Benefit Plans Back Under Your Control Hardcover – November 1, 2011. -298 r.
44. Vaxabov D.R. Pensiya tizimini isloh qilishning jahon tajribasi // Moliya. – Toshkent, 2010.- № 4.– B. 21-27.
45. Vaxabov D.R. Jahon pensiya tizimining asosiy yo‘nalishlari // Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion faoliyatni investitsiyalash. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tezislar to‘plami.– Toshkent, 2010. – B. 241-244.
46. Vaxabov A.V. O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida pensiya tizimini modernizatsiyalash istiqbollari. Pensiya ta‘minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2014 yil. 21 noyabr. -B.28-39.
47. Vahabov A.V., Raxmonov Sh.I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining pensiya tizimini isloh etishga ta‘siri. Ijtimoiy hamkorlik - iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish omili. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2014 yil. 16 aprel. -B.20-31.
48. Vaxabov A. Oxundedaeva M. Jahon pensiya tizimini rivojlantirish xususiyatlari. // Moliya. – Toshkent. 2014.- № 2.– B. 87-89.
49. Davronov Sh.Z. Davlat pensiya ta‘minoti tizimi barqaror rivojlanmoqda yanada takomillashtirilmoqda. Pensiya ta‘minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami.T. 2014 yil. 21 noyabr. -B.8-11.
50. Мамаджанов И.Т. Вектор развития пенсионных систем стран мира. Pensiya ta‘minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2014 yil. 21 noyabr. -B.21-28.
51. Rayxonov U., Musurmonova X. O‘zbekistonda byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga to‘lanadigan sug‘urta badallarining holati va rivojlanish tendensiyalari. Pensiya ta‘minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika

ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2014 yil. 21 noyabr. B.208-210.

52. Toshmuhamedoava D.A. Pensiya tizimi barqarorligini ta'minlash masalalari. Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2014 yil. 21 noyabr. -B.85-88.

53. Федорова М.Ю. Единый социальный налог как способ финансирования социального страхования. // Журнал российского права. 2002. N 5.-С.25-29.

54. Xaydarov A. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi tahlili. // Moliya. – Toshkent. 2014.- № 2.– В.95-99.

55. Хижный Э.К. Старение населения и пенсионные реформы в странах “Большой семерки”. Научно-аналитический обзор. –М. 2000. – С.49.

56. Qosimova G.A. Pensiya ta'minotida ijtimoiy risklarni kamaytirish masalalari. \ Moliya. -Toshkent. 2013. №3. –B.108-112.

57. Qosimova G.A. Aripov K. Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotida xorijiy tajribalardan foydalanish. \ Biznes-Ekspert. -Toshkent. 2013. -№9. –B.50-52.

58. Qosimova G.A., Dadaxonov D.G'. O'zbekistonda ijtimoiy dasturlar asosida aholi turmush farovonligini oshirish. Islohotlarni yanada chuqurlashtirish sharoitida turmush sifatini yaxshilashning ijtimoiy omillari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2014 yil. 19may. -B.213-215.

59. Qosimova G.A. Pensiya jamg'armasining investitsion faoliyati. O'zbekiston iqtisodiyoti real sektori korxonalarini modernizatsiyalashda bank-moliya institutlari ishtirokining dolzarb masalalari. Xalkaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2014 yil. 19 noyabr. -B.289-292.

60. Qosimova G.A., Norbo'taev S.A. O'zbekistonda Pensiya jamg'armasi faoliyatini rivojlantirish istiqbollari. Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2014 yil. 21 noyabr. -B.236-239.

61. Qosimova G.A. Pensiya ta'minotida majburiy ijtimoiy sug'urta tizimining zaruriyati. \ Moliya. -Toshkent. 2014. -№6. –B.123-128.

## VII. Internet-sayti ma'lumotlari

- [www.pfru.uz](http://www.pfru.uz) O'zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi;
- [www.gov.uz](http://www.gov.uz) (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali);
- [www.mf.uz](http://www.mf.uz) (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti);
- [www.undp.uz](http://www.undp.uz) (BMTTD rasmiy sayti);
- [www.lex.uz](http://www.lex.uz) (O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi);
- [www.publicfinance.uz](http://www.publicfinance.uz) (O'zbekistonda budjet islohotlari loyihasi sayti);
- [www.statistics.uz](http://www.statistics.uz) (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi rasmiy sayti).